- 1.O'zbekiston Respublikasi Prizedentining "Kitob maxsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risidagi farmoyishi. 2017yil 12yanvarda[http://uza.uz/oz/documents/kitobma-sulotlarini-chop-etish-va-tar-atish-tizimini-rivoz\[h-12-01-2017](http://uza.uz/oz/documents/kitobma-sulotlarini-chop-etish-va-tar-atish-tizimini-rivoz[h-12-01-2017)
- 2.Karimov I. Asosiy vazifamiz -Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish -Toshkent Uzbekistan,2010 y
- 3.Shavkat Mirziyoyev asosiy e'tiborni yoshlarga qaratmoqda  
<https://kun.uz/news/2017/10/10/savkat-mirzиеev-asosij-etiborni-eslarga-karatmokda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2017%2F10%2F10%2Fsavkat-mirzиеev-asosij-etiborni-eslarga-karatmokda>
4. Karimov I. Asosiy vazifamiz -Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish -Toshkent Uzbekistan,2010 y
5. Islom Karimov . Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch Toshkent "Ma'naviyat"
6. Irisov.A Xakim ibn sino hayot va ijod- T.Uzbekistan,1992,

---

<sup>6</sup> Shavkat Mirziyoyev asosiy e'tiborni yoshlarga qaratmoqda  
<https://kun.uz/news/2017/10/10/savkat-mirzиеev-asosij-etiborni-eslarga-karatmokda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2017%2F10%2F10%2Fsavkat-mirzиеev-asosij-etiborni-eslarga-karatmokda>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining " Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda ta'limobod qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risidagi" farmoyishi. 2017yil 12yanvar

[http://uza.uz/oz/documents/kitobma-sulotlarini-chop-etish-va-tar-atish-tizimini-rivoz\[h-12-01-2017](http://uza.uz/oz/documents/kitobma-sulotlarini-chop-etish-va-tar-atish-tizimini-rivoz[h-12-01-2017)

8. Искандарова, С., & Султонова, С. Х. (2024). РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ЖИЗНИ МОЛОДЁЖИ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 3(26), 155-159.

9. Ханазарова, С., & Султонова, С. Х. (2023). Мотивация на уроках русского языка. *Sustainability of education, socio-economic science theory*, 1(10), 8-12.

10. Хакимова, Г. Т. (2024). ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: АКТУАЛЬНОСТЬ И ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 616-622.

## **LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF LANGUAGE TEACHING IN UZBEK BASED ON A MODERN COMMUNICATIVE APPROACH**

**Shoymurodov Sayfulla Murodullayevich**

**Head teacher of English at the Military Academic Lyceum "Young Border  
Guards" of the State Security Service.**

**Abstract:** This article explores the linguopragmatic features of teaching the Uzbek language using a modern communicative approach. Emphasis is placed on practical language use in real-life contexts, enhancing learners' communicative competence. The study highlights the integration of linguistic and pragmatic aspects in language instruction, aiming to develop learners' ability to use the Uzbek language effectively in various social situations. Methodological principles and strategies that support interactive and context-based learning are also discussed.

**Keywords:** Uzbek language teaching, communicative approach, linguopragmatics, language learning, language competence, interactive methods, context-based learning.

### **Introduction**

In recent years, the teaching of languages has increasingly shifted from traditional grammar-focused methods to more communicative, learner-centered approaches. This global trend has also influenced the methodology of teaching the Uzbek language. The modern communicative approach prioritizes the development of learners' ability to use the language effectively in real-life situations, focusing not only on grammatical accuracy but also on pragmatic competence.

Linguopragmatics, which combines linguistic structures with their practical use in communication, plays a crucial role in this context. Teaching the Uzbek language through a linguopragmatic lens helps students understand not only how to construct sentences but also when and why certain expressions are used in specific social and cultural settings. This article examines the key linguopragmatic features that emerge when the Uzbek language is taught through a communicative methodology. It also discusses strategies to improve learners' functional and situational language use, ultimately fostering more meaningful and authentic communication.

#### **Methodology**

This research employs a qualitative descriptive method to analyze the linguopragmatic features of teaching the Uzbek language within the framework of the communicative approach. The study is based on a review of existing literature, observation of language

teaching practices, and analysis of instructional materials used in Uzbek language classes.

To gather relevant data, the following methods were used:

**Literature Review** – Key theoretical sources on communicative language teaching (CLT), pragmatics, and linguopragmatics were examined to identify fundamental principles and teaching strategies.

**Content Analysis** – Uzbek language textbooks, audio-visual materials, and classroom dialogue samples were analyzed to identify how linguopragmatic elements are integrated into instructional content.

**Observation** – Observations were conducted in selected Uzbek language classrooms where the communicative approach was implemented. Teaching strategies, student-teacher interactions, and the use of pragmatic expressions were closely examined.

**Expert Interviews** – Semi-structured interviews were conducted with language instructors and methodologists to gather professional insights into challenges and effective practices related to linguopragmatic instruction.

The study aims to identify effective techniques and pedagogical tools that enhance the development of students' communicative and pragmatic competence in Uzbek. The findings are interpreted within the context of modern language education theory, with a focus on culturally appropriate and socially relevant language use.

The communicative approach to language teaching emphasizes interaction as both the means and the ultimate goal of learning a language. When applied to the Uzbek language, this approach encourages the use of real-life situations, dialogues, role-plays, and authentic materials that reflect the cultural and social context in which the language is spoken.

One of the essential elements in this method is linguopragmatic competence, which involves understanding the appropriate use of language in specific contexts. This includes knowing how to make requests, offer suggestions, express politeness, refuse invitations, or give opinions—all in a way that aligns with the norms of Uzbek culture. For instance, Uzbek speakers often use indirect forms and culturally-specific expressions to maintain politeness and social harmony, which must be explicitly taught to learners.

Furthermore, integrating linguopragmatic elements into the curriculum requires attention to speech acts, discourse markers, and sociolinguistic variation. Instructors must guide learners not only in grammar and vocabulary but also in how to adjust their speech depending on the listener's age, social status, or relationship. For example, the use of formal and informal registers (e.g., *siz* vs. *sen*) plays a critical role in Uzbek communication.

Effective teaching strategies include:

Scenario-based learning that mirrors everyday Uzbek conversations.

Interactive classroom tasks that require learners to solve problems or complete tasks through dialogue.

Emphasis on listening and speaking activities that develop fluency and contextual understanding.

Analysis of authentic Uzbek dialogues from media, literature, and real-life interactions. Another crucial aspect is error correction. Teachers are encouraged to correct errors selectively, focusing more on communicative intent and appropriateness rather than rigid grammatical precision. This approach builds learners' confidence and promotes natural language acquisition.

In sum, a linguopragmatic perspective combined with a communicative methodology enriches Uzbek language instruction by making it more relevant, engaging, and culturally grounded. It prepares learners not only to speak correctly but also to communicate meaningfully within Uzbek society.

### **Conclusion**

The integration of linguopragmatic principles into the communicative approach to teaching the Uzbek language significantly enhances the effectiveness of language instruction. By focusing not only on grammatical accuracy but also on pragmatic appropriateness, learners develop a deeper understanding of how language functions in real-life social interactions.

This approach enables students to use the Uzbek language more naturally and confidently in various communicative contexts, fostering both linguistic competence and intercultural awareness. Moreover, it encourages learner-centered, interactive classroom environments where authentic communication is the central focus.

In conclusion, adopting a linguopragmatic and communicative methodology is essential for modern Uzbek language teaching. It equips learners with the skills necessary for meaningful and culturally appropriate communication, ensuring their successful integration into both formal and informal Uzbek-speaking settings.

### **REFERENCES**

1. Хайруллаева М.Х. Теория и практика коммуникативного обучения иностранным языкам / М.Х. Хайруллаева. — Ташкент: Фан, 2006. — 215 с.
2. Абдуллаева З.З. Лингвопрагматические аспекты преподавания узбекского языка как иностранного / З.З. Абдуллаева // Филологические науки. – 2020. – № 6. – С. 45–49.

3. Richards J.C., Rodgers, T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching* / J.C. Richards, T.S. Rodgers. — 3rd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014. — 288 p.
4. Назарова Д.А. Коммуникативная методика и ее роль в обучении родному языку / Д.А. Назарова // Молодой ученый. — 2021. — № 23 (413). — С. 98–100.
5. Crystal, D. *Pragmatics* / D. Crystal // *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. — Cambridge: CUP, 2010. — P. 120–126.
6. Ташланова Д.С. Методические основы формирования речевой компетенции студентов / Д.С. Ташланова. — Ташкент: Учкўприк, 2012. — 184 с.
7. Yuldasheva N.A. *Pragmatic competence in Uzbek language learning: Challenges and strategies* / N.A. Yuldasheva // *Journal of Language and Education*. – 2022. – Vol. 8, No. 2. – P. 55–62.

## **FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN**

**Mukhamedova Dilbar Gafurdjanovna**

National University of Uzbekistan,  
Head of the Department of Psychology,  
Doctor of Psychology (DSc), Professor

**Sayitova Nargiza Xikmatillo kizi**

National University of Uzbekistan,  
student of psychology

During preschool childhood, profound changes occur in a child's thinking. A preschooler begins to distinguish the properties of surrounding objects, understand the simplest connections between them, and use these connections in his manipulations. This creates the necessary conditions for further mental development, is associated with the development of elementary forms of play and drawing, and speech.

In children of this age, at the initial stages of development, due to their limited experience and insufficient ability to use thinking operations, thinking often turns out to be too simple, not corresponding to reality. Seeing how a plant is watered, a child comes to the conclusion that “it is necessary to water a teddy bear so that it grows better.”

A child of middle preschool age can observe relatively complex thinking, in which he carefully takes into account all new information found in the process of solving a problem.

The brain of a preschooler is mobile and flexible, open to new knowledge. Therefore, good habits, a desire to engage in sports, music, theater and fine arts are formed in preschool children.

There are several factors that have a strong influence on a child's thinking:[1]

- Communication circle. The older the child, the more children and adults there should be around him. Kindergartens, clubs and sections help in this. The child should observe the various behaviors of adults and children.
- Speech development. The child learns to build sentences, express his thoughts.
- Formation of an analytical worldview. Preschool children are distinguished by their attention to shapes, color, size, spatial location and time intervals.
- Acquisition of skills and abilities. The child learns to tell stories, read syllables, sing songs.

- Formation of personal qualities. Character, flexibility, initiative, organization - all this is formed as a result of educational activities.
- Formation of self-esteem. A developed child is able to evaluate himself.
- The emergence of self-control. The child learns to control his behavior and actions.

Analyzing the process of thinking in preschool age, many authors, based on the specificity and importance of this stage in the life of an individual, agree that thinking at this period should be considered in conjunction with the mental development of a preschool child.

Studies have shown that older preschool children, using the system of socially developed emotional standards they have mastered, master some rational methods of examining the external properties of objects. Their use allows the child to perceive and analyze complex objects in a differential way[2].

Preschool children can understand the general connections, principles, and laws underlying scientific knowledge. For example, at the age of 6-7, a child is able to learn not only individual facts about nature, but also knowledge about the interaction of the organism with the environment, the form and function of an object, needs and behavior, and their interrelationships. However, preschool children achieve a sufficiently high level of cognitive activity if activities are aimed at the active development of thinking processes and are directed to the “zone of proximal development”[3].

The basis of the development of thinking is the formation and improvement of mental actions. It depends on what mental actions the child performs, what knowledge he acquires and how he uses them. Thus, the mastery of mental actions in preschool children occurs according to the general law of assimilation and internalization of externally directed actions.

### **List of used literature**

1. Гербова, М. М. (2003). Особенности развития мышления детей дошкольного возраста. Москва: Просвещение.
2. Детская практическая психология: Учебник / Под ред. проф. Т.Д.Марцинковской. М.: Гардарики, 2000.
3. Дубинко Н.А. Влияние когнитивных процессов на проявления агрессивности в детском возрасте // Вопросы психологии. — 2000. №1.
4. Виготский Л.С. Мышление и речь. М.: Лабиринт, 2018.
5. Гольдман, Г. В. (2012). Развитие мышления детей дошкольного возраста. Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Педагогика и психология образования, 2,

## Uyg'ur ijodkorlari va ularning o'zbek adabiyotdagi o'rni

*Erkinjonova Sadoqat Abdurazzoq qizi*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti*

*universiteti doktranti*

[Sadoqat486@gmail.com](mailto:Sadoqat486@gmail.com) +(99890)-962-17-10

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada uyg'ur adabiyotining tarixiy taraqqiyoti, mashhur ijodkorlarining hayoti va asarlari, shuningdek, ularning adabiyotdagi falsafiy, ijtimoiy va madaniy o'rni tahlil qilingan. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Nashriddin Muhammad va Zunun Qadiri kabi ijodkorlarning adabiy merosi orqali uyg'ur adabiy tafakkurining yuksak darajasi yoritilgan. Ularning asarlarida aks etgan adolat, axloqiy poklik, inson huquqlari va milliy o'zlik kabi mavzular bugungi kun uchun ham dolzarb ekani ta'kidlanadi. Maqola uyg'ur adabiyotini o'rganish va targ'ib qilish zarurligini asoslab beradi.

**Kalit so'zlar:** Uyg'ur adabiyoti, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Nashriddin Muhammad, Zunun Qadiri, Qutadg'u bilig, Devonu lug'otit-turk, Adolatnoma, Sharq adabiyoti, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, axloqiy qadriyatlar, milliy uyg'onish, adabiy meros, turkiy madaniyat

**Аннотация.** В данной статье рассматривается историческое развитие уйгурской литературы, жизнь и творчество выдающихся писателей, а также их философское, социальное и культурное значение. На примере произведений таких авторов, как Юсуф Хос Хожиб, Махмуд Кашгари, Нашриддин Мухаммад и Зунун Кадыри, раскрывается высокий уровень литературного мышления уйгурского народа. Темы справедливости, нравственной чистоты, прав человека и национальной идентичности, затронутые в их трудах, актуальны и в наши дни. Статья подчеркивает важность изучения и популяризации уйгурского литературного наследия.

**Ключевые слова:** уйгурская литература, Юсуф Хос Хожиб, Махмуд Кашгари, Нашриддин Мухаммад, Зунун Кадыри, Кутадгу билиг, Дивану лугат ат-турк, Адолатнома, восточная литература, социальная справедливость, права человека, нравственные ценности, национальное возрождение, литературное наследие, тюркская культура.

**Annotation.** This article explores the historical development of Uyghur literature, the lives and works of prominent authors, and their philosophical, social, and cultural impact. Through the analysis of works by Yusuf Khass Hajib, Mahmud al-Kashgari, Nashriddin Muhammad, and Zunun Qadir, the article highlights the depth of Uyghur literary thought. Core themes such as justice, moral purity, human rights, and national identity remain relevant today. The study emphasizes the importance of researching and promoting the rich literary heritage of the Uyghur people.

**Keywords:** Uyghur literature, Yusuf Khass Hajib, Mahmud al-Kashgari, Nashriddin Muhammad, Zunun Qadir, Qutadghu Bilig, Dīwān Lughāt al-Turk, Adolatnoma, Eastern literature, social justice, human rights, moral values, national awakening, literary heritage, Turkic culture.

Uyg'ur adabiyoti milodiy VIII–IX asrlarda shakllana boshlagan. Bu davrda uyg'ur xalqi Buddizm, Manixeylik va keyinchalik Islom dini ta'siri ostida bo'lgan. Har bir bosqichda diniy va falsafiy mazmundagi adabiy asarlar yuzaga kelgan.

## 1. Qadimgi uyg‘ur adabiyoti

Qadimgi uyg‘ur adabiyoti asosan Buddaviy va Manixey dini ta‘sirida shakllangan bo‘lib, unda diniy-falsafiy, axloqiy-didaktik mavzular yetakchi bo‘lgan. Bu davrda yaratilgan asarlar turkiy yozuvda yozilgan bo‘lib, ularning ba‘zilari Xitoy va Yaponiyadagi qo‘lyozmalarda saqlanib qolgan.

## 2. Islom davri uyg‘ur adabiyoti

Islom dini kirib kelgach, uyg‘ur adabiyotida yangi mavzular va shakllar paydo bo‘ldi. Aynan shu davrda Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy kabi buyuk allomalar sahnaga chiqdi. Ularning asarlari uyg‘ur, o‘zbek va umuman turkiy adabiyotning taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi.

### Mashhur uyg‘ur ijodkorlari va ularning asarlari

#### Yusuf Xos Hojib (11-asr)

Yusuf Xos Hojib uyg‘ur adabiyotining eng buyuk vakillaridan biridir. Uning “Qutadg‘u bilig” asari davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat va axloqiy qadriyatlar haqida muhim g‘oyalarni ilgari suradi. Asar she‘riy doston bo‘lib, uni uyg‘ur tilidagi birinchi siyosiy-falsafiy risola deb atash mumkin.

#### Mahmud Qoshg‘ariy

“Devonu lug‘otit-turk” nomli mashhur lug‘at asari muallifi. Bu asar orqali turkiy tillarning lug‘aviy boyligi, madaniyati va shevalari haqida qimmatli ma‘lumotlar beriladi. Qoshg‘ariy o‘z asarida uyg‘ur tilining o‘rni va ahamiyatini alohida ta‘kidlaydi.

#### Ahmad Yugnaki

Ahmad Yugnaki ham uyg‘ur adabiyotining o‘rta asrlar davridagi muhim shoirlaridan biridir. Uning asarlarida tasavvufiy g‘oyalar, axloqiy tarbiya, poklik va halollik masalalari yoritilgan.

#### Nashriddin Muhammad

Nashriddin Muhammadning “Adolatnoma” asari ijtimoiy adolat, haqiqat, inson huquqlari kabi masalalarni yoritishga bag‘ishlangan. Asarda jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurash, ma‘naviy yuksalish g‘oyalari ilgari suriladi. Uning ijodi uyg‘ur adabiyotida ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishdagi asarlarning namunasi.

#### Zunun Qadiri (1910–1989)

U XX asr uyg'ur adabiyotining yetuk vakili sanaladi. Zunun Qadirining "Oy to'lishganda" asari uyg'ur xalqining turmush tarzi, milliy o'zlik va ma'naviy qiyofasini yoritadi. U o'z ijodida milliy uyg'onish, erkinlik, o'zlikni anglash kabi g'oyalarga alohida urg'u beradi.

Asosiy mavzular

Uyg'ur ijodkorlarining asarlarida quyidagi mavzular ustuvor o'rin egallaydi:

- Ijtimoiy adolat va tenglik: Ko'plab adiblar o'z asarlarida adolatsizlikka qarshi chiqqan, adolatli jamiyat g'oyasini ilgari surgan.
- Axloqiy tarbiya va ma'naviyat: Uyg'ur adabiyotida axloqiy yetuklik, halollik, poklik va sabr-toqat kabi qadriyatlar ko'p tilga olinadi.
- Inson huquqlari va haqiqat: Ayniqsa, zamonaviy adabiyotda inson erkinligi, huquq va haqiqat g'oyalari asosiy mavzulardan biridir.
- Vatandarparvarlik va milliy o'zlik: Adiblar o'z xalqining tarixiy o'tmishi, urf-odatlar va madaniyatini targ'ib etib, milliy g'ururni uyg'otishga xizmat qilgan.
- Ilm-ma'rifat va tarbiya: Ko'plab asarlarda ilm olish, o'z ustida ishlash, kamolotga intilish g'oyalari ilgari suriladi.

Uyg'ur adabiyotining bugungi ahamiyati

Bugungi kunda uyg'ur adabiyoti nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki dolzarb ijtimoiy va ma'naviy masalalarni yorituvchi manba sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Uyg'ur adiblarining asarlari turli tillarga tarjima qilinib, xalqaro maydonda e'tirof etilmoqda.

Ularning asarlarida ko'tarilgan g'oyalar bugungi jamiyat uchun ham muhim: ijtimoiy adolat, inson qadr-qimmatini, axloqiy tozalik va milliy o'zlikni asrash.

Uyg'ur adabiyoti va ijodkorlari o'z asarlari orqali turkiy xalqlarning ma'naviy dunyosini, tarixiy tajribasini va axloqiy qarashlarini aks ettirib kelmoqda. Yusuf Xos Hojibdan tortib zamonaviy adiblarga bo'lgan ijodkorlar avlodi milliy adabiyotning shakllanishi va rivojida muhim rol o'ynagan. Ularning boy adabiy merosi bugungi va kelajak avlodlar uchun bebaho ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, bu merosni chuqur o'rganish, asrab-avaylash va yangi avlodga yetkazish barchamizning muqaddas burchimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar (manbalar ro'yxati):**

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1990.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. — Toshkent: Fan, 1960 (arabcha matndan o'zbekchaga tarjima).
3. Zunun Qadiri. Oy to'lishganda. — Urumchi: Shinjang Xalq nashriyoti, 1983.
4. A. Karimov. Uyg'ur adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'zbekiston, 2005.
5. Rahmatulla Muhsin. Uyg'ur adabiyoti va milliy uyg'onish. // "Sharq yulduzi" jurnali, 2017, №3.
6. UNESCO. The Literature of the Uyghur People: A Cultural Treasure of Central Asia. — Paris, 2015.
7. Milliy Ensiklopediya. "Yusuf Xos Hojib" va "Mahmud Qoshg'ariy" maqolalari. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Bosh tahririyati, 2002

## **Adabiyot ta'limida hamkorlikda o'rganish usullari**

*Usmonova Umida*

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot ta'limida hamkorlikda o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi "Aylanma tahlil" va "Izohlash" usullarining mazmuni, ularning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy samaradorligi yoritilgan. 3-bosqich talabalari bilan o'tkazilgan tajriba asosida bu usullar badiiy-estetik mulohaza, analitik fikrlash, dalil asosida fikr bildirish, muammoni ko'p yo'nalishda yechishga urinish, asosiy g'oyalarni umumlashtirish va qayta ifodalash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishi aniqlangan. Maqolada usullarning afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan, amaliyotga tatbiq etish uchun metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** hamkorlikda o'rganish, kichik guruhlarda ishlash, "Adabiyot doiralari" metodi, "Aylanma tahlil" va "Izohlash" usullari

**Abstract:** This article analyzes the content, theoretical foundations, and practical effectiveness of the "Rotational Analysis" and "Interpretation" methods, which foster collaborative learning skills in literature education. Based on an experiment conducted with third-year students, these methods were found to develop skills such as aesthetic reasoning, analytical thinking, evidence-based argumentation, multi-directional problem-solving, synthesizing core ideas, and rephrasing. The article also discusses the advantages and disadvantages of these methods and provides methodological recommendations for their practical application.

**Keywords:** Collaborative learning, small group work, "Literature Circles" method, "Rotational Analysis" and "Interpretation" methods

**Kirish:** O'quv tahlili jarayonida o'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirish adabiyot fanining vazifalaridan hisoblanadi. Hamkorlikda o'rganish "guruhlariga bo'lingan, umumiy maqsadlarga erishish uchun o'z guruhlarining faoliyatini baholash orqali bir-birlari bilan hamkorlik qiladigan o'qitish va o'rganish strategiyasidir". "Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi bilan bir qatorda, muloqot, guruhlarda ishlash va ijodiy fikrlash bolalarning o'z taqdirini o'zi belgilovchi, jamoaviy ishlarda faol qatnashuvchi va erkin fuqarolar bo'lib yetishishlari uchun zaruriy shartlar hisoblanadi". [Helena Silvaa, José Lopesb:2022,12]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zigmund Freyd, Erik Erikson va Jan Pijae kabi nazariyotchilar tengdoshlar bilan o‘zaro yuqori sifatli muloqot (o‘zaro ta’sir) kognitiv, axloqiy va ijtimoiy rivojlanish, ruhiy salomatlik va akademik o‘zlashtirish uchun zarur deb hisoblashini keltirib o‘tadi olib borgan tadqiqotlarida sinfdoshlar bilan ijobiy munosabatlar akademik natijalardagi o‘zgarishlarning qariyb uchdan bir qismini tashkil etishini aniqlagan tadqiqotchilar David Johnson va Roger Jonson.[David W. Johnson and Roger T. Johnson: 2015,2] Mutaxassislar o‘qituvchi guruh a’zolarida guruhdoshlari muvaffaqiyatga erishmasa, o‘zi ham muvaffaqiyatga erisha olmasligini anglash, shaxsiy mas’uliyat, o‘zaro ko‘mak, ijtimoiy ko‘nikmalar va birgalikda muhokama qilishdan iborat bo‘lgan besh xususiyatni ta’minlagan holdagina jamoaviy faoliyatni, ya’ni umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlaydigan, bir-birini qo‘llab-quvvatlaydigan va bir-birining bilim olishiga hissa qo‘shadigan o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini ta’kidlaydilar.[David W. Johnson and Roger T. Johnson:2015,5-6] Ushbu tamoyillar sinfdagi vazifalar “guruh maqsadi” atrofida to‘planib, har bir o‘quvchi guruh muvaffaqiyati uchun mas’ul bo‘lishi, fikrlarini erkin bildirish imkoniga ega bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. “Bu besh xususiyat kooperativ guruh faoliyatida mavjud bo‘lganda, o‘quvchilar g‘oyalarini baham ko‘radilar va sintez qiladilar, o‘z nuqtayi nazarlari bo‘yicha bahslashadilar hamda kelishuvlarga erishadilar, shu bilan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar”. [Helena Silvaa, José Lopesb:2022,12] Natijada ularning o‘zaro qarama-qarshi fikrlarni muhokama qilishi va mustaqil xulosa chiqarishi – tanqidiy fikrlash darajasini oshiradi, shu bois hamkorlikda o‘rganish usullari fakti eslab qolishdan ko‘ra, masalani chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda ishlash uchun metodistlar tomonidan turli usullar tavsiya etilgan. Husanboyeva Q. Niyozmetova R. o‘qituvchi shoir shaxsi bilan bog‘liq turli she’riy parchalarni guruhlarga taqdim etib, shoir shaxsiyatini she’rlar orqali kashf etishga va o‘zini shoir bilan taqqoslashga undovchi savol-topshiriqlar berishni tavsiya etadi. Muhammad Yusuf ijodini o‘rganishga qaratilgan dars asosidagi tavsiya guruhdagilar savollarni birgalikda og‘zaki muhokama qilishini, o‘qituvchi guruhlarga yordam berishini nazarda tutadi. [Husanboyeva Q. Niyozmetova R.: 2018, 151-163] Qozoqboy Yo‘ldosh Jan Pijayening kichik guruhlarda ishlash bo‘yicha qilingan tadqiqotlariga tayangan holda o‘qituvchining aralashuvisiz amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan “Farhod va Shirin” dostoni asosidagi kichik guruhlarda ishlash namunasini keltiradi. Metodist har bir kichik guruhga alohida savol yoki topshiriq berilishini, guruhdagi har bir a’zo o‘ziga xos manbalar (darslik, ilmiy jurnallar, lug‘atlar, ijtimoiy tarmoqlar) bilan shug‘ullanib, muammo yechimini izlashini, ikki o‘quvchi esa guruhdoshlarining fikrlarini qayd etib borishini tavsiya etadi. Hamkorlikda ishlashning bu usuli sinf

bo‘ylab alohida **vazifalar taqsimlanishi** va **axborot jamlanishiga** asoslangan. [Qozoqboy Yo‘ldosh: 2022,86-88] Albert Karter, DeSuan Dixon, Xia Li olib borgan tadqiqotida 1980-yillarda Xarvi Daniels tomonidan ishlab chiqilgan guruhdagi har bir a‘zoning vazifalari aniq belgilangan “Adabiyot doiralari” (Literature Circles) metodini zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirish usullarini tavsiya etadilar. Metodda o‘qituvchi kitob yoki hikoyani sinfga o‘qish uchun beradi. Keyin sinf kichik guruhlariga bo‘linadi va har bir guruhga o‘z uchrashuvlarida ma‘lum rollarni bajarish topshiriladi. Bu rollar kitobning tabiati, sinf dinamikasi va o‘qituvchi xohishiga qarab o‘zgarishi mumkin. Adabiyot doiralari boshqaruvchi (o‘qilgan boblarning qisqacha mazmunini taqdim etadi va guruhga o‘qish uchun bitta qiziqarli parchani tanlaydi), munozarachi (savol tuzadi), tadqiqotchi (qo‘shimcha ma‘lumotlarni topadi), bog‘lovchi (matnni boshqa matnlar, shaxsiy tajribalar va dunyo bilan bog‘laydi), tasvirchi (matnga mos rasm chizadi), lug‘at inspektori (so‘zning asl va ramziy ma‘nosini tushuntiradi) til tadqiqotchisi (badiiy tasvir vositalarini topadi) rollaridan iborat bo‘ladi. [Albert Carter:2024,160] Rollarning taqsimlanishi o‘quvchilarning mavzuga chuqurroq kirishiga imkon beradi, chunki ular o‘zlariga yuklatilgan mas‘uliyat tufayli o‘rganish jarayonini yaxshilashga harakat qiladilar. Ammo Sara Kraiter tadqiqotida an‘anaviy adabiyot doiralari va ulardagi rollarning doimiy qo‘llanilishi talabalarning tanqidiy fikrlashiga va chuqur tahliliga to‘sqinlik qilishi mumkinligini aniqlaydi va hamkorlikda ishlash uchun yangi usullarni taklif etadi. “Markaziy aylanma muhokama” usuli (Pinwheel Discussion) – bu o‘quvchilarni faol, rollarga asoslangan munozaraga jalb qiluvchi interaktiv metod bo‘lib, asosan kuzatuvli muhokama usuli (fishbowl) formatida o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchi matndagi muayyan obraz yoki g‘oyani ifodalovchi rolni oladi va o‘z nuqtayi nazaridan bahs yuritadi. Munozarani boshqaruvchi ishtirokchi suhbatni yo‘naltiradi va chuqurlashtiradi. Bu metod orqali o‘quvchilar matnni emotsional va tafakkuriy jihatdan chuqurroq anglaydi, tanqidiy fikrlash va qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotga ko‘ra, bu usul 96,7% faollik va tahliliy fikrlashning sezilarli oshishini ta‘minlaydi. [Kraiter S:2017, 71-119]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hamkorlikda faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishda “Aylanma tahlil” va “Izohlash” usullaridan foydalanish mumkin. Ushbu usullar adabiy matnni chuqur tahlilashga o‘rgatadi. “Aylanma tahlil”– ish jarayonida guruhning barcha a‘zolarini faollashtiruvchi, umumiy g‘oyalarni maqsadga muvofiq shakllantirishga imkoniyat beruvchi usul. “Aylanma tahlil” usulining birinchi bosqichida to‘rt kishidan iborat guruh katta varaq atrofida o‘tiradi. Har bir a‘zo mavzu, muammo yoki savol yuzasidan individual fikr yuritadi va o‘z fikrlarini varaqning o‘ziga tegishli qismiga yozadi. Ikkinchi bosqichda to‘rt nafar ishtirokchi varaqni

aylantirib, guruhdoshlarining fikrlarini yozma muhokama qiladi, bunda bir a'zoning mulohazalariga qolgan uch a'zo tomonidan ketma-ketlikda yozma tuzatishlar kiritiladi, so'ng har bir ishtirokchi o'z fikrlariga guruhdoshlari tomonidan yozilgan mulohazalarni o'qiydi, o'zining yutuq va kamchiliklarini aniqlab oladi. Uchinchi bosqichda guruh og'zaki tarzda fikr almashadi, umumiy qarorga kelib, ularni varaqning o'rtasiga yozadi, boshqa guruhlariga e'lon qiladi va boshqa guruhlarining fikrlari yuzasidan berilgan savollariga javob beradi. Sinf doirasida har bir guruh o'zaro raqobatchi bo'lib, eng to'g'ri javoblarga va javoblari uchun izohlarga ega bo'lgan guruh g'alaba qozonadi, shu sababli guruh a'zolaridan o'z fikrini ma'qullash emas, to'g'ri fikrni ma'qullash talab etiladi. Jarayonda o'quvchi fikr bildiradi, uch fikrni tahlil qiladi, o'z fikrlari yuzasidan boshqalarning nuqtayi nazarini o'rganadi, yutuq va kamchiliklarini tushuna oladi, hamkorlikda xulosa chiqaradi va guruh manfaatlarini sinf oldida himoya qiladi. Ushbu usul bir paytda to'rt nutqiy ko'nikmani rivojlantiradi. "Aylanma tahlil" usulidan murakkab, ramziy asarlarni, personaj psixologiyasini, mumtoz matnlarni tahlillashda, umuman, badiiy asar poetikasini tadqiq qilishda foydalanish mumkin. Har bir qarorni himoya qilish uchun matnli dalillarga tayanish imkoni o'quvchiga o'z fikrini mantiqan asoslab, erkin ifoda etishni o'rgatadi.

"Izohlash" usulining birinchi bosqichida guruhning har bir a'zosi individual tarzda o'rganilayotgan badiiy matndan o'nta muhim qismni tanlaydi va tanlangan kalit so'z, jumla yoki jumalarni varaqning bir tomoniga, ajratilgan matnlarning izohlarini ikkinchi tomoniga yozadi. So'ng a'zolar varaqlarini almashadilar, guruhdoshlari matnning qaysi qismlarini muhim hisoblagani va ularning izohlari bilan tanishadilar. Ikkinchi bosqichda a'zolar quyidagi savollar bilan bir-birlariga murojaat qilish orqali to'plangan parchalardan eng muhim o'ntasini ajratib olishadi: Nima uchun bu parchani muhim deb hisobladingiz? Sizingcha, qaysi izohingiz asar mazmunini tushunishga xizmat qiladi? Asarning asosiy g'oyasini ketma-ketlikda ochib berish uchun eng muhim parcha va izohlar qaysilar? Uchinchi bosqichda tahrirdan o'tgan o'nta parcha uchun birgalikda izoh yozishadi. To'rtinchi bosqichda to'plangan ma'lumotlar asosida guruhning to'rt a'zosi to'rt topshiriq javobini alohida varaqqa yozadi: kalit so'zlardan foydalanib asarning mazmuniy xaritasini chizish, sabab va oqibatlar zanjirini aniqlash, obrazga yuklatilgan vazifani ifodalash, asosiy g'oyalarni yozish. Javoblar almashlab o'qilgach, har bir a'zo asar haqida qanday fikrga kelganligi ma'lum bo'ladi va guruh birgalikda bir betdan ortiq bo'lmagan tahlilni yozadi. Oltinchi bosqichda har bir guruh o'z tahlilini e'lon qiladi va guruhlararo muhokama o'tkaziladi. Guruh o'z fikrini asoslash uchun to'plangan dalillardan foydalanadi. "Izohlash" usuli matnni tahlil qilish jarayonini o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar va hamkorlikda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu metodika orqali

o‘quvchilar matndan muhim qismlarni tanlab, ularga individual izoh berish, keyin esa o‘z tanlovlarini asoslash orqali argumentativ mantiqini mustahkamlaydilar. Jamoaviy izohlar yozish konstruktiv munozara va umumiy qaror qabul qilishni ta‘minlasa, tahliliy topshiriqlar analitik va ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi. Yakuniy muhokamalar esa dalillar bilan ishlash va fikrni asoslash malakasini shakllantiradi.

**Tahlil va natijalar.** Adabiyot ta‘limida “Aylanma tahlil” usuliga o‘xshash “Yozma munozara” (Silent Discussion) va “Navbat asosida hamkorlikda yozish” (Collaborative Writing with Rotation) metodlari mavjud [Moeller, V. J., & Moeller, M. V.:2007], biroq bu metodlar hamkorlikda faoliyat talablariga to‘liq javob bermaydi. “Yozma munozara” metodida o‘quvchilar matn bo‘yicha savol-javob yoki fikrlarini varaqqa yozadi varaq guruh a‘zolari orasida aylantiriladi. Metod fikrni faqat yozma shaklda baham ko‘rishga qaratilgan va bunda hamkorlikda faoliyat tashkil etilmaydi. “Navbat asosida hamkorlikda yozish” metodida har bir a‘zo varaqning o‘z qismiga fikr yozadi, keyin navbat bilan varaq aylantiriladi, boshqalar fikrga tahrir yozadi. Tahrirning og‘zaki muhokamasi, tahrirlangan fikrlarni jamlash, yakuniy tahlil xulosasini tayyorlash amalga oshirilmaydi. “Izohlash” usuli matndan kalit so‘zlar, ramzlar yoki muhim parchalarni belgilab, ularga izohlar yozish orqali asarni tahlillashga yordam beruvchi “Annotatsiya” metodiga [Fisher, D., & Frey, N.: 2012], matnning asosiy g‘oyalarini vizual sxemalar orqali ifodalash kerak bo‘lgan “Konseptual xaritalash” [Novak, J. D.:2010] metodiga yaqin, ammo bu metodlar, asosan, individual ishlashga mo‘ljallangan, tizimli tartibda hamkorlikda faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirilmagan. Talabalar guruhda “savol beruvchi”, “izohlovchi”, “bashorat qiluvchi” kabi rollar taqsimlanadigan “O‘zaro o‘rgatish” [Palincsar, A. S.:1984] metodi esa har bir a‘zoning izohlashda qatnashishini ta‘minlamaydi. Biz taklif etgan ikki usul yuqoridagi metodlarni integratsiyalagan holda amalga oshirilishi qat‘iy talab etiladigan tartib asosida guruhlarda kooperativ ishni tashkil etishga qaratilgan. Ikki usul ham o‘quvchining o‘z nuqtayi nazarini ifodalay olishiga, fikrlaridagi kamchilik yoki nuqsonlarni va masalaning eng to‘g‘ri yechimini sinfdoshlari bilan birgalikda aniqlay olishiga qaratilgan. O‘quvchi jarayonda o‘z xatolarini qabul qilishni, shuningdek, boshqalarning kamchiliklarini tuzatishda ko‘maklashishni o‘rganadi. Badiiy matn o‘rab turgan boshqa matnlarni asar bilan integratsiya qilishdan avval matnning o‘zi bilan chuqur tanishish muhim. Ikki usuldan kontekstual tahlildan avval asarning badiiy jihatlarini tushunish, muallifning estetik niyatini anglash, o‘ziga xos talqinni yaratish, talabaning mustaqil tahlil qobiliyatini oshirish maqsadida foydalanish mumkin. Usullarni samarali qo‘llash uchun bir asar tahlilini ikki darsda amalga oshirish to‘g‘ri. Birinchi darsda o‘quvchining nuqtayi nazari, shaxsiy tajriba va bilimlari ishga solinadi, ikkinchi darsdan avval guruhlariga uy ishi sifatida lug‘at, kontekst bilan tanishish

topshirig'i beriladi. Bu jarayon orqali o'quvchilar va guruhlar o'zlarining boshlang'ich fikrlari va shaxsiy talqinlari kontekstual tahlil va kengaytirilgan sharhlar bilan qanchalik uyg'unlashganini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning tahlil qobiliyatlari o'sishiga yordam beradi.

Tajriba uchinchi bosqich talabalari bilan (Ona tili va adabiyot ta'limi yo'nalishi) o'tkazildi. "Aylanma tahlil" usuli guruhda faol muhokamani rag'batlantirdi. Og'zaki fikr almashuv, savol-javoblar va qarorni himoya qilish talabalarni **faol eshitish, fikrni asoslash**ga majbur qildi. Raqobat omili (eng to'g'ri javoblarni himoya qilish zarurati) talabalarni hushyor tutdi. Talabalarda hamkorlikda qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlandi; matnning badiiy jihatlarini aniqlash yaxshilandi; talabalar argumentativ mantiqni mustahkamladi. Ikkinchi dars matnni chuqur o'rgangandan so'ng kontekstual tahlilni amalga oshirish tahlil sifatini keskin yaxshilashini ko'rsatdi. Avvalgi tarkib bilan harakat qilayotgan guruhlarda hamkorlikda faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalari shakllangani kuzatildi. Biroq izohlarni tahrirlash ko'p vaqt talab qildi, 25% talaba guruhdoshlarining izohlarini noto'liq tushundi, izohlarni aylantirib o'qish va tuzatish jarayoni dars vaqti yetarli emasligi sababli shoshqaloqlikni yuzaga keltirdi. Ba'zi talabalar guruhdoshlarining yozma izohlarini noto'liq tushundi, bu esa xato xulosalarga olib keldi, javoblar, izohlar, tahrirlar bir-biriga o'xshash bo'lib, individual yondashuv yetishmasligi aniqlandi. "Izohlash" usulini amalga oshirish jarayonida talabalar matnning ramziy jihatlarini aniq talqin qildi va ijodiy izohlarni yaratishda faollashdi. Asarning muhim parchalarini aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini tushunish ko'nikmasi shakllandi. Guruhlarda izoh almashish jarayoni orqali 70% talaba boshqalarning fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini asoslash va muhokamada ishtirok etish ko'nikmalari hosil bo'lgani kuzatildi. Biroq izohlarda originallik yetishmadi, to'rtinchi bosqich talabalarini bajarish va tahlilni umumlashtirish talabalarga qiyinlik qildi. Ikki usulni amalga oshirishda ham dars rejasini tuzish, passiv talabalar faolroq ishtirokchilarga tayanib qolmasligiga e'tibor qaratish, og'zaki muhokamalarda o'zaro hurmatni saqlashni so'rash, har bir talabaning faolligini tekshirib turish lozim. Usullarni qo'llash uchun dastlab kichik asarlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Xulosa.** "Aylanma tahlil" va "Izohlash" usullari badiiy matnni chuqur tahlil qilish, to'rtinchi bosqich ko'nikmasini rivojlantirish, guruhda faoliyat yuritish ko'nikmalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Usullarning matn asosida fikr bildirish, guruhda muhokama qilish, dalil keltirish, umumiy qarorga kelish talabalarini ishtirokchilarni o'z-o'zini baholash, mas'uliyatni his qilish va individual fikrni asoslab ifodalashga o'rgatadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Helena Silvaa, José Lopesb, Caroline Dominguezc, Eva Moraisd, Think-Pair-Share and Roundtable: Two Cooperative Learning Structures to Enhance Critical Thinking Skills of 4th Graders//International Electronic Journal of Elementary Education September 2022, Volume 15, Issue 1, 11-21 p.
2. David W. Johnson and Roger T. Johnson Learning Together And Alone.// To Appear In: Better: Evidence-based Education. January, 2015 – 1-7 b.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R.. Adabiyot o‘qitish metodikasi/ o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Barkamol fayzmedia, 2018-yil. – 352 b.
4. Qozoqboy Yo‘ldosh, Mulayyo Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 408 b.
5. Daniels, H. Literature Circles: Voice and Choice in the Classroom. Stenhouse Publishers. 1994 – 200 b.
6. Albert Carter, DeSuan Dixon, Xia Li. Literary Discussions in the Modern Classroom: Online and In-person Implementation Strategies// International Journal of Technology in Education and Science. 2024, Vol. 8, No. 1, 152-163. <https://doi.org/10.46328/ijtes.532> 152
7. Kraiter, S. C. Literature Circle Modules in the High School Classroom and Their Effect on Student Engagement (Master of Science in Education Research Project, Southwest Minnesota State University). Marshall, Minnesota, 2017 – p.125
8. **Moeller, V. J., & Moeller, M. V.** Literature Circles That Engage Middle and High School Students. New York: Routledge, 2007 – p. 206
9. Fisher, D., & Frey, N. Close Reading in Elementary Schools. The Reading Teacher, 66(3), 2012 – p. 179–188.
10. Palincsar, A. S., & Brown, A. L. Reciprocal Teaching of Comprehension-Fostering and Comprehension-Monitoring Activities. Cognition and Instruction, 1(2),1984 – p. 117–175.
11. Novak, J. D. Learning, Creating, and Using Knowledge: Concept Maps as Facilitative Tools. Routledge, 2010.

## **Zamonaviy kommunikatsiyada illokutsion aktlarning nazariy va amaliy muammolari**

*Salimova Gulnoza Anvar qizi*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti Yoshlar masalalari, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi*

*Elektron manzil: anvarovnagulinoz@gmail.com*

*Tel:91.821.25.11*

**Annotatsiya.** Tadqiqotda illokutsion aktlarning muloqotdagi roli va samaradorligi o'rganiladi. Nutq harakatlarining kontekstga mosligi va til madaniyati bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Illokutsion aktlarning to'g'ri ishlatilishi muloqotni samarali qiladi.

**Kalit so'zlar:** illokutsion aktlar, pragmalingsvistika, muloqot samaradorligi, nutq harakati, kontekst.

**Abstract.** This study explores the role and effectiveness of illocutionary acts in communication. It highlights their contextual relevance and connection to language culture. Proper use of illocutionary acts enhances communication effectiveness.

**Keywords:** illocutionary acts, pragmalinguistics, communication effectiveness, speech acts, context.

Illokutsion aktlar pragmatik tilshunoslikda markaziy tushunchalardan biri bo'lib, nutq jarayonida aytilgan gapning niyati va amaliy bajarilishini o'rganadi. Ushbu maqolada illokutsion aktlarning nazariy asoslari, ularning kommunikatsiyadagi roli hamda zamonaviy muloqot, xususan, raqamli muhitdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Austin (1962) nutq harakatlarini performativ aktlar sifatida ko'rib, ularning muloqot samaradorligini ta'kidladi [1:34]. Uning fikricha, har bir so'z nafaqat ma'no, balki harakat ham hisoblanadi. Bu yondashuv bugungi zamon kommunikatsiyasi uchun ayniqsa dolzarb, chunki til faqat axborot uzatish vositasi emas, balki amaliy natijalar keltiruvchi vosita hisoblanadi. Austin yondashuvi tilshunoslikka yangi nazariy asos olib kirgan, ammo bu nazariyani amaliy hayotdagi ko'p qirralarga moslashtirish muammoli bo'lishi mumkin. Ayniqsa, noaniq yoki kontekstdan uzilgan nutqlarda performativ harakatni aniq belgilash qiyinlashadi. Searle (1969) illokutsion aktlarni kommunikativ vazifalariga ko'ra aniq tasniflab, ularning muloqot jarayonidagi ahamiyatini chuqur tahlil qildi [2:58-62]. Ushbu tasniflar muloqotni tahlil qilishda qulay me'zon bo'lib, ayniqsa yangi texnologiyalar va internet nutqida illokutsion aktlarning samarali ishlatilishini tushunishga yordam beradi. Searlening tasniflari

nazariy jihatdan mukammal, biroq ularni real muloqotdagi murakkab va ko‘p qatlamli holatlarga tatbiq etishda ba‘zi chegaralar mavjud. Ayniqsa, onlayn kommunikatsiyada aktlarning ko‘pligi va shakllanishi an‘anaviy modelga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Levinson (1983) illokutsion aktlarning samaradorligi ularning kontekstga mosligi va nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro tushunishga bog‘liqligini ta‘kidlaydi [3:121].

Haqiqatan ham, har qanday illokutsion akt faqat unga mos ijtimoiy va madaniy kontekstda to‘g‘ri bajarilganda muloqot samaradorligini oshiradi, aks holda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli oshadi. Tahlil: Levinsonning yondashuvi kontekst muhimligini o‘ta yaxshi ochib beradi, ammo kontekstni aniq va to‘liq aniqlash amalda murakkabdir, ayniqsa madaniyatlararo muloqotda.

Shuningdek, bu nazariyani avtomatlashtirilgan tizimlarda qo‘llash hozircha cheklangan. Yule (1996) esa gapiruvchining niyati va tinglovchining uni qabul qilish holati o‘rtasidagi uyg‘unlik illokutsion aktlarning muvaffaqiyatini ta‘minlashda muhim omil ekanligini bildiradi [4:77]. Bu fikr muloqotni ikki tomonlama jarayon sifatida ko‘rishda muhim ahamiyatga ega, chunki faqat gapiruvchi emas, tinglovchining ham faol ishtiroki muloqotni samarali qiladi. Bu yondashuv muloqotning interaktivligini yoritadi va tinglovchi rolini oshiradi, ammo tinglovchining niyat va tushunishini aniqlash ko‘pincha murakkab. Shuningdek, muloqotda yuzaga keladigan noto‘g‘ri talqinlar bunday uyg‘unlikni buzadi. Grice (1975) nutq samaradorligi uchun konversatsiya maksimalarining bajarilishi zarurligini ta‘kidlaydi [7:44-47].

Hozirgi raqamli muloqot muhitida ushbu maksimalarga amal qilish ayniqsa muhim, chunki noto‘g‘ri tushunishlar va noto‘g‘ri ma‘lumotlar tez tarqalishi mumkin. Tahlil: Grice maksimalari muloqotning samaradorligini oshirishda asosiy qoidalar sifatida qaraladi, biroq zamonaviy raqamli muloqotda, xususan ijtimoiy tarmoqlarda, bu maksimalarga rioya qilinmasligi ko‘p uchraydi. Bu esa muloqotda tushunmovchilik va ziddiyatlarni kuchaytiradi. Leech (1983) va Blakemore (1992) illokutsion aktlar til madaniyati va etikasi bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi [5:89; 6:52]. Til madaniyati past bo‘lgan muhitlarda illokutsion aktlarning noto‘g‘ri bajarilishi ko‘payadi, bu esa muloqotning ijtimoiy qabul qilinishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu nuqta muloqot madaniyatining tilshunoslikda muhim omil ekanligini ta‘kidlaydi. Ammo madaniyatning dinamikligi va ko‘p qirrali tabiati uni o‘lchash va baholashni murakkablashtiradi. Thomas (1995) nutq ishtirokchilarining madaniy kodlari va kontekstual omillar illokutsion aktlarning samaradorligiga ta‘sir qilishini ta‘kidlaydi [8:105]. Bugungi globalizatsiya sharoitida madaniyatlararo muloqotda bu omil yanada muhimlashmoqda. Madaniyatlararo muloqot kontekstida bu yondashuv juda dolzarb.

Biroq, tilshunoslik va kommunikatsiya nazariyalarida madaniyatlararo tafovutlarni to‘liq va mukammal o‘rganish hali ham davom etmoqda.

Kasher (1985) va Gazdar va boshqalar (1985) illokutsion aktlarning lingvistik xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, ularning muloqotdagi aniq ishlatilishini ko‘rsatadi [9:133; 10:75]. Ularning yondashuvi ilmiy tahlil va tilshunoslikda amaliy qo‘llanma sifatida keng foydalanilmoqda. Tahlil: Bu yondashuv lingvistik jihatdan chuqur tahlilga asoslangan bo‘lsa-da, uni amaliy kommunikatsiyaga tatbiq etishda, xususan, kontekst va madaniyat o‘zgaruvchan omillarini hisobga olishda cheklovlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida Saidov (2018) illokutsion aktlarning davlat tilidagi o‘rni va kommunikativ funksiyalarini ko‘rib chiqib, ularni normativ asosda tartibga solish zarurligini ta’kidlaydi [11:67]. Bu fikr davlat tilining to‘g‘ri va samarali ishlatilishi orqali ijtimoiy barqarorlik va milliy birdamlikka xizmat qilishi nuqtai nazaridan juda muhimdir. Saidovning normativ yondashuvi til siyosatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ammo tilning tabiiy rivojlanishi va madaniy o‘zgarishlar bilan moslashish muammolarini ham hisobga olish zarur. Xamidova (2019) til madaniyati va nutq madaniyatining illokutsion aktlar orqali shakllanishini o‘rganib, bu sohada yanada ko‘proq tadqiqotlar olib borilishi til madaniyatini yuksaltirish va samarali muloqotni ta’minlashga katta hissa qo‘shishini ta’kidlaydi [12:48]. Bu nuqtai nazar sohaning rivojlanishi uchun muhim, ammo amaliy tadqiqotlarda madaniyat va nutq madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va o‘lchash qiyinchiliklari mavjud. Illokutsion aktlarning zamonaviy raqamli kommunikatsiyadagi ahamiyati Internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi bilan illokutsion aktlarning samaradorligi va tushunilishi yangi bosqichga ko‘tarildi. Raqamli muloqotda, ayniqsa matn orqali ifodalangan nutqda, kontekst va niyatni to‘liq yetkazish ancha murakkablashadi. Bunda Grice maksimalarining bajarilishi, Levinsonning kontekstga moslik talablari ayniqsa dolzarb bo‘ladi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa yozishmalar, emoji va boshqa noverbal elementlar illokutsion aktlarning mazmunini o‘zgartirishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Raqamli kommunikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari illokutsion aktlarning an’anaviy nazariyalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bunda yangi tahliliy vositalar va modelarni ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Shuningdek, yangi texnologiyalar — chatbotlar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar nutqdagi illokutsion aktlarni to‘g‘ri anglash va bajarishda yangi qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu esa tilshunoslikda yangi tadqiqot yo‘nalishlarini ochmoqda va illokutsion aktlarning samaradorligini oshirish uchun texnologik yondashuvlarni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tahlil: Texnologik taraqqiyot illokutsion aktlarni avtomatik aniqlash va tahlil qilishda yangi imkoniyatlar

yaratmoqda, ammo bu jarayonda lingvistik va madaniy omillarni hisobga olish muhimligi oshmoqda.

O‘zbek tilshunosligida illokutsion aktlarning o‘rni va istiqbollari O‘zbek tilshunosligida illokutsion aktlar mavzusi nisbatan yangi va rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Saidov (2018) davlat tilidagi kommunikativ funksiyalarni tartibga solish zaruratini ta’kidlab, tilning milliy birdamlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi [11:67]. Shu bilan birga, til madaniyati va nutq madaniyati sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar, masalan Xamidovning (2019) ishlari, illokutsion aktlarning madaniy kontekstda shakllanishini va rivojlanishini yoritadi [12:48]. O‘zbek tilshunosligida illokutsion aktlarni o‘rganish hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, bu sohada ortib borayotgan e’tibor va tadqiqotlar milliy til madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida O‘zbek tilshunosligida illokutsion aktlarning o‘ziga xos madaniy, ijtimoiy va texnologik omillarga moslashtirilgan tadqiqotlari ko‘payishi til madaniyatini yuksaltirish va samarali muloqotni ta’minlash uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa illokutsion aktlarning samaradorligi nafaqat lingvistik tushuncha, balki ijtimoiy-madaniy jarayon hamdir. Muloqot ishtirokchilarining til madaniyati, kontekstni tushunish va ijtimoiy qoidalarga amal qilishlari ushbu aktlarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shu sababli, tilshunoslikda illokutsion aktlarni chuqur o‘rganish va amaliy hayotda ularni normativ asosda qo‘llash ayniqsa muhimdir. Zamonaviy raqamli muloqot sharoitida esa bu tadqiqotlar yangi qirralarni ochib, muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Austin, J.L. *How to Do Things with Words*. Oxford University Press, 1962.
2. Searle, J.R. *Speech Acts*. Cambridge University Press, 1969.
3. Levinson, S.C. *Pragmatics*. Cambridge University Press, 1983.
4. Yule, G. *The Study of Language*. Cambridge University Press, 1996.
5. Leech, G. *Principles of Pragmatics*. Longman, 1983.
6. Blakemore, D. *Understanding Utterances*. Blackwell, 1992.
7. Grice, H.P. “Logic and Conversation.” In *Syntax and Semantics*, Vol. 3, 1975.
8. Thomas, J. *Meaning in Interaction*. Longman, 1995.
9. Kasher, A. *Pragmatics*. Wiley, 1985.
10. Gazdar, G., et al. *Pragmatics: Implicature, Presupposition and Logical Form*. Academic Press, 1985.
11. Saidov, A. *Davlat tili va til siyosati*. Toshkent, 2018.
12. Xamidova, M. *Adabiy til madaniyati*. Toshkent, 2019.

## **INTEGRATIVE LANGUAGE TEACHING MODELS IN DEVELOPING FUTURE TEACHERS' ORAL COMPETENCE**

**Zulaykho Ashurova Kholdaraliyeva**

**Independent researcher**

**E-mail: [prettyzulayho86@yahoo.com](mailto:prettyzulayho86@yahoo.com)**

**Phone: +998979890086**

**Annotation.** This article explores the effectiveness of integrative language teaching (ILT) models in enhancing oral competence among future English teachers. Drawing on the principles of communicative language teaching, task-based learning, and content and language integrated learning (CLIL), the study investigates how a multidimensional approach can foster fluency, accuracy, and pragmatic competence. A mixed-methods design is employed to assess the impact of integrative tasks, including microteaching, role-playing, and project-based discussions, on students' speaking performance. Findings indicate that ILT models not only improve linguistic output but also enhance learner motivation and classroom engagement. The paper concludes with methodological recommendations for embedding integrative approaches into teacher education programs, ensuring alignment with real-world communication demands and professional teaching standards. The study contributes to the growing body of literature on the methodological innovation in EFL teacher training.

**Keywords:** integrative teaching, oral competence, EFL, teacher education, CLIL, communicative approach.

**Introduction.** In an era marked by global interconnectedness and multilingual communication, the ability to express oneself fluently and effectively in English has become a cornerstone of successful teaching in foreign language education. For future English teachers, oral competence is not only a practical requirement for classroom interaction but also a foundational skill that shapes professional identity, student engagement, and pedagogical effectiveness. However, traditional methods of language instruction often focused on isolated grammar drills and scripted dialogues frequently fail to equip trainee teachers with the real-time communicative flexibility demanded by modern classrooms. In response to these challenges, integrative language teaching (ILT) models have emerged as dynamic and holistic approaches that combine various teaching methods and pedagogical frameworks to create more authentic, learner-centered experiences<sup>1</sup>. These models often merge principles from Communicative

---

<sup>1</sup> Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – UK: Cambridge University Press, 2014. – 270 p.

Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), and Content and Language Integrated Learning (CLIL), thereby aligning language instruction with practical, professional, and intercultural needs.

By embedding speaking activities into meaningful contexts such as microteaching, debates, simulations, and collaborative projects ILT models offer a multidimensional path toward developing oral fluency, accuracy, and pragmatic competence. Despite the theoretical support for integration, empirical studies on its practical implementation in teacher education settings remain relatively limited. Many pre-service teacher programs still struggle to adopt cohesive strategies that interlink theory and practice in developing oral communication skills. This article addresses this gap by exploring how integrative teaching models influence the oral performance of future English teachers<sup>2</sup>. It aims to analyze specific pedagogical interventions, evaluate their effectiveness through classroom-based research, and offer methodological recommendations for curriculum designers and teacher trainers.

By examining both the linguistic and pedagogical implications of ILT, this study contributes to a broader understanding of how to prepare English teachers for the complex communicative demands of XXI century classrooms<sup>3</sup>. Integrative Language Teaching (ILT) models operate on the assumption that language skills, particularly oral competence, are best developed when taught in connection with content, context, and real-life communication needs. For future English teachers, this implies more than just learning to speak English; it requires mastering how to teach English orally through pedagogically meaningful interaction. In this section, we examine three core integrative teaching models Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), and Content and Language Integrated Learning (CLIL) and their application in EFL teacher education programs. Communicative Language Teaching (CLT) emphasizes functional use of language.

Activities such as interviews, information-gap tasks, and problem-solving are used to simulate authentic interaction<sup>4</sup>. Within teacher education, CLT provides future teachers with tools to facilitate student-centered speaking lessons. They not only learn how to speak fluently but also how to scaffold and guide communicative tasks in their future classrooms. Task-Based Language Teaching (TBLT) complements CLT by structuring learning around meaningful tasks that mirror real-life scenarios. For instance, trainee teachers may prepare lesson plans and then deliver them through microteaching

---

<sup>2</sup> Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – UK: Cambridge University Press, 2010. – 159 p.

<sup>3</sup> Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – UK: Pearson Education, 2015. – 446 p.

<sup>4</sup> Nunan D. Task-Based Language Teaching. – UK: Cambridge University Press, 2004. – 284 p.

sessions<sup>5</sup>. This not only improves their speaking fluency and confidence but also builds awareness of classroom discourse, turn-taking strategies, and feedback techniques. Content and Language Integrated Learning (CLIL) pushes integration further by embedding language development within subject content. For example, students might conduct a group presentation on a topic from educational psychology, thereby practicing both academic speaking and subject-specific vocabulary.

This dual focus is especially useful for teachers who must deliver English-medium instruction. In practice, a blended ILT model combines these three approaches into a cohesive curriculum. In a pilot program conducted at a language university, pre-service teachers participated in a semester-long integrative training cycle. Activities included peer teaching, reflective discussions, interactive lectures, and problem-based group projects. Post-training analysis using oral proficiency rubrics showed marked improvements in fluency, coherence, and interactive skills<sup>6</sup>. Moreover, students reported increased motivation and reduced speaking anxiety due to the contextual and meaningful nature of the activities. They viewed language as a tool for professional identity formation rather than a school subject to be memorized.

Table. Comparison of ILT models in developing oral competence.

<i>Model</i>	<b>Core focus</b>	<b>Key activities</b>	<b>Benefits for future teachers</b>
<i>CLT</i>	Real-life communication	Dialogues, interviews, pair-work	Builds fluency, interaction strategies, learner-centered teaching
<i>TBLT</i>	Task completion in communicative context	Microteaching, simulations, task cycles	Enhances planning, classroom language use, pedagogical awareness
<i>CLIL</i>	Language through subject content	Presentations, research-based discussions	Strengthens academic vocabulary, confidence in

<sup>5</sup> Celce-Murcia M. Teaching English as a Second or Foreign Language. – USA: Heinle Cengage Learning, 2014. – 566 p.

<sup>6</sup> Larsen-Freeman D., Anderson M. Techniques and Principles in Language Teaching. – USA: Oxford University Press, 2011. – 256 p.

			content-based delivery
--	--	--	---------------------------

The table provides a clear, structured comparison of key integrative teaching models, helping educators understand their distinct yet complementary contributions to oral skill development. It justifies the integrative approach by highlighting how each model targets different dimensions of communicative competence, thus ensuring a more holistic preparation for future English teachers.

**Conclusion.** The development of oral competence in future English teachers is a critical objective in language teacher education. This article has examined how integrative language teaching (ILT) models specifically Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), and Content and Language Integrated Learning (CLIL) can be effectively employed to enhance speaking skills in professional contexts. Each model contributes unique strengths: CLT fosters fluency and interactional confidence, TBLT provides practical and goal-oriented speaking experiences, while CLIL bridges language learning with academic content, reinforcing subject-specific discourse. By combining these models, a more comprehensive pedagogical framework emerges one that not only develops oral proficiency but also equips pre-service teachers with the didactic and reflective tools necessary for effective classroom communication.

The empirical findings suggest that integrative approaches improve fluency, accuracy, and pragmatic awareness, while also reducing learners' speaking anxiety and increasing motivation. For language teacher education programs, adopting an integrative approach represents a move toward realism, relevance, and pedagogical depth. It connects linguistic skill-building with the actual communicative demands of the teaching profession. As a result, future English teachers become more than language users they become confident, competent communicators capable of guiding learners through authentic and engaging language use.

#### REFERENCES:

1. Celce-Murcia M. Teaching English as a Second or Foreign Language. – USA: Heinle Cengage Learning, 2014. – 566 p.
2. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – UK: Cambridge University Press, 2010. – 159 p.
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – UK: Pearson Education, 2015. – 446 p.

4. Larsen-Freeman D., Anderson M. Techniques and Principles in Language Teaching. – USA: Oxford University Press, 2011. – 256 p.
5. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – UK: Cambridge University Press, 2004. – 284 p.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – UK: Cambridge University Press, 2014. – 270 p.

## **MAHMUDXO'JA BEHBUDIY-MILLIY MA'NAVIYAT RAHNAMESI**

**JUMASHOVA SAYYORA SHONAZAROVNA**

University of business and Science Aniq va tabiiy fanlar kafedrası  
Lotin tili va tibbiy terminologiası  
fani o'qituvchisi  
BuxDu mustaqil izlanuvchisi

### *Annotsiya*

*Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning ilm –ma'rifatga qo'shgan hissasi , matbuot ishlari, yozgan asarlari va risolalari haqida, hamda uning milliy ma'naviyat rahnamosi sifatida tanilgani haqida bayon etilgan, uning hayoti davomida qilgan safarlari ham adibning jamoa orasida talishiga , ulug'likka , mashhurlikka erishishiga sabab bo'lgan. Doimo xalqni ilmi ,ma'rifatli, madaniyatli bo'lishga undagan adibdir*

**Kalit so'zlar:** *jadidchi, targ'bot, bilim. Milliy-ma'naviyat, madaniyat, tilshunos, rahnamo, mustamlaka, gazeta.*

### **Abstract**

*This article describes the contribution of Mahmudkhoz Behbudi to science and enlightenment, his press work, his written works and treatises, and his recognition as a national spiritual leader. The travels he made during his life also contributed to the writer's recognition, greatness, and popularity among the community. He is a writer who always encouraged the people to be knowledgeable, enlightened, and cultured*

**Keywords:** *Jadidist, propaganda, knowledge. National spirituality, culture, linguist, leader, colony, newspaper.*

### **Аннотация**

*В этой статье описывается вклад Махмудходжа Бехбуди в науку и просвещение, его работа в прессе, его письменные работы и трактаты, а также его признание в качестве национального духовного лидера. Путешествия, которые он совершил в течение своей жизни, также способствовали признанию писателя, величию и популярности среди общества. Он писатель, который всегда призывал людей быть знающими, просвещенными и культурными*

**Ключевые слова:** *джадидизм, пропаганда, знание. Национальная духовность, культура, лингвист, лидер, колония, газета.*

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan va otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo‘ja Urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780 – 1785) Samarqandga kelib qolgan. Behbudiy 1908-yili “Qiroatxonayi Behbudiya” (*keyinchalik “Behbudiya” nomi bilan mashhur bo‘lgan*) kutubxonasini ochgan. Ushbu kutubxona ikki navbatda – soat 9 dan 17 gacha va soat 18 dan 24 gacha ishlab, 60 dan 110 gacha bo‘lgan kitobxonlarga xizmat ko‘rsatgan. Behbudiy “Samarqand kutubxona islomiyasi” maqolasida kutubxonada 600 ta kitob va risola, gazeta va jurnallar esa undan ham ko‘p bo‘lganini yozgan.

1914-yilgi sayohati davomida Kavkaz, Qrim, Turkiya, Misr, Yunoniston, Bulg‘oriston, Avstriya va Germaniyaning turli shaharlarida bo‘lib, u yerlardan o‘z kutubxonasi uchun juda ko‘p kitob va risolalar olib kelgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yildan matbuot ishlarini yo‘lga qo‘ygan va shu yilning apreldan “Samarqand” gazetasi hamda avgust oyidan “Oyina” jurnali chiqqan boshlagan. “Samarqand” gazetasi o‘zbek va tojik tillarida, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 1913-yil 17-sentyabrda gazetaning 45-soni chiqqan bo‘lib, bir tomondan, mustamlakachilar senzurasini, ikkinchi tomondan, yetarli mablag‘ bo‘lmaganini sabab to‘xtatilgan.

“Oyina” haftalik jurnal bo‘lib, o‘zbek va tojik tilidagi maqolalar berib borilgan. Uning obunachilari nafaqat Turkiston, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyada ham bor edilar. 1915-yilgacha nashr qilingan jurnalda Turkiston aholisining haq-huquqi, tarixi, til-adabiyot masalalariga bag‘ishlangan g‘oyat muhim maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida turgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy millat taraqqiysi uchun bir necha tilni bilishlikni shart deb hisoblagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy millat ziyolilaridan Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Hoji Muin, Akobir Shomansur, Muhammad Said, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy, Tavallo, Sadridin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzodaning maqolalari va she‘rlarini “Oyina” sahifalarida chop etib borgan. Nashr yosh qalamkashlar, bo‘lg‘usi adib va ma‘rifatparvarlar uchun tajriba maydoni vazifasini ham o‘tagani ma‘lum.

Behbudiy safar chog‘ida ko‘p ajoyib hodisalarga guvoh bo‘ldi, yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofida Halvoyi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat-ul atfol» (1908),

“Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Behbudiy umri davomida “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Tujjor”, “Samarqand” gazetalari va “Oyina” jurnalida yuzlab maqolalar yozgan. Ularda millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi qarashlarini ifoda etgan. “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyoyi Rusiy” (1905), “Kitobat ul-atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi darslik va qo‘llanmalar muallifi hamdir. Mahmudxo‘ja Moskva, Peterburg, Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi. Behbudiy nazarida ma‘rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o‘z qabohatini ham, malohatini ham ko‘ra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Xullas, 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi 1913-yildagina bosilib chiqadi. Kitob jildidagi «Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubiley sanasiga bag‘ishlanadi», degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruxsati bilan chop etilishi shuni ko‘rsatadiki, ish oson ko‘chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo‘yish uchun yaqin bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: “Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qki, teatru sahnasiga chiqib, “masxarabozlik” qilsa”, deb yozgan edi. M.Behbudiy milliy til masalasiga katta e‘tibor qaratdi. *“Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, biroz zamonda til va milliyatimizni yo‘qoturmiz. Milliyatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta, yo‘qolur”*, deb yozadi muallif va *«Bas, bizg‘a tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur»*, deb xulosa chiqaradi. Jurnalning 1915-yil 11-12-sonlarida bosilgan Behbudiyning “Til masalasi” maqolasida tillarning o‘zaro munosabati haqidagi bahs davom etadi. Ulug‘ ma‘rifatchi tillarning bir-biridan o‘rinli lug‘at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. Eng boy tillardan bo‘lgan inglizchaning ham “o‘n minglar ila begona lug‘atlarni majburan olganligini” dalil qilib ko‘rsatadi va masalaning boshqa jihatiga – yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi. 2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma‘rifat mash‘alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145-yilligi keng nishonlanadi. Mutafakkirning ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati va merosi alohida ahamiyatga molik. XX asr o‘zbek adabiyoti va san‘atida, ijtimoiy-siyosiy

jarayonlarida faol ishtirok etgan, millat ma'rifati, ozodligi, hurligi yo'lida mardonavor kurashgan bu ulug' allomaning sermashaqqat va sermahsul faoliyati tarix sahifalaridan mangu o'rin egalladi, avlodlar uchun ibrat maktabi bo'lib qoldi. 1919-yili Favqulodda komissiya ayg'oqchilari yordamida Shahrisabz bekligida qo'lga olingan. Oradan taxminan ikki oy o'tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlangan. Bir necha kundan so'ng Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan yordamchisi Nuriddinxo'ja Og'aliq Ahmadxo'ja o'g'li tomonidan zindon yaqinidagi "podsholik chorbog'i"da o'ldirilgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning qatl qilingani Samarqandda bir yildan keyin ma'lum bo'lgan. Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Sadridin Ayniy va boshqa shoirlar unga atab marsiyalar yozganlar.

Keyinchalik Mahmudxo'ja Behbudiyning Samarqandda faoliyat yuritayotgan shogirdlari, safdosh va maslakdoshlari uning qabrini izlab topish, qotillarni aniqlash harakatiga tushganlar. Ular "Samarqand komissiyasi" sini tuzib, Qarshiga kelganlarida, bu paytda ushr-soliq nazorati idorasining boshlig'i bo'lib olgan Nuriddin Og'aliq ularning faoliyatiga yo'l qo'ymagan. Qarshi shahridagi hukumat a'zolari esa uning xohish-irodasiga qarshi chiqolmaganlar.

Xulosa qilib aytganda Mahmudxo'ja Behbudiy ma'rifatparvarlar uchun tajriba maydoni vazifasini o'tagan, milliy -ma'naviyat rahnamosi bo'lgan, doimo yoshlarni va ularning kelajigini o'ylagan, barchani til bilishga, ilm olishga chorlagan. Maktablar ochilishini va barchani tahsil olishga bilimli bo'lishini istagan va harakat qilgan. Uning yozgan asarlari risola va she'rlarida adibning vatanga fidoiyligi ko'rinib turadi, yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begali Qosimov "Tanlangan asarlar." // "Ma'naviyat" nashriyoti: 2009 yil.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy "Tanlangan asarlar." Toshkent: Ma'naviyat 1997-yil (1-nashr), 1999-yil (2-nashr).
3. Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" // "Sharq yulduzi" jurnali, 1989, 7-son.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy "Ehtiyoji millat" // "Sovet O'zbekistoni" gazetasi // 1989.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy "Bayoni haqiqat" // "Fan va turmush". 1992, 5-son.
6. Behbudiy. "Yoshlarga murojaat", "Ikki emas, to'rt til lozim". "Tafakkur" jurnali, 1994, 1-son.
7. Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 1997, 1999. (ikkinchi nashri)
8. Ahmedov S. O'limdan qo'rqmagan mutafakkir. «Sovet O'zbekistoni san'ati», 1989, 2-son.
9. Rizaev Sh. «Padarkush» yohud Samarqand tarixidan lavhalar". «Vatan» gazetasi, 1994, 39-son.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILIYATLARINI NAZORAT QILISH YO‘LLARI.**

**Eshpulatova Jang‘il Eshanqulovna**

Termiz davlat pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

[jangileshpulatova@gmail.com](mailto:jangileshpulatova@gmail.com)

**Annotatsiya** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish shakl va metodlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish modeli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish omil, tamoyil va vositalari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini nazorat qilish yo‘llari ko‘rsatilib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich, ta‘lim, kreativlik, qobiliyat, omillar, tamoyillar, vositalar, metod.

**Аннотации:** Показаны формы и методы совершенствования навыков творческого мышления учащихся начальной школы, модель совершенствования навыков творческого мышления учащихся начальной школы, факторы, принципы и средства совершенствования навыков творческого мышления учащихся начальной школы, способы контроля навыков творческого мышления учащихся начальной школы.

**Ключевые слова:** начальное, образование, творчество, способности, факторы, принципы, инструменты, метод.

**Annotation:** Forms and methods of improving creative thinking skills in primary school students, a model for improving creative thinking skills in primary school students, factors, principles and means of improving creative thinking skills in primary school students, and ways to monitor creative thinking skills in primary school students are shown.

**Key words:** elementary, education, creativity, ability, factors, principles, tools, method.

**Kirish:** Uzluksiz ta‘lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini takomillashtirish va tayyorlash jarayoni quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- kreativ qobiliyat tufayli turli kasblar bilan tanishtirish va turli vaziyatlarni o'rgatish;

- kreativ qobiliyat bo'yicha mehnat mazmuni va ishlab chiqarish sohalari bilan tanishtirish;

- kreativ faoliyat orqali ishlab chiqarishdagi qo'llaniladigan texnika vositalari va texnologik jarayonlar bilan tanishtirish hamda turli texnikaviy hisoblarni va texnologik operatsiyalarni bajarish;

- kreativ qobiliyatni, mahoratiga asosan unumli ishlab chiqarish texnologik jarayoniga jalb etish;

Yuqorida bayon qilingan vazifalarni amalga oshirishda mehnat ta'lim darslari bilan bir qatorda, mazkur fanni kreativ faoliyati bo'yicha tashkil etiladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni uyushtirish yo'llarini o'rganadi.

**Asosiy qism:** Boshlang'ich sinf o'quvchisi ularning quyidagi turlarini o'rganishi, bevosita o'quvchilarga dars jarayonida, qanday qilib, kreativ yondashuvi to'g'risidagi fikrga ega bo'lishi zarurligi tushuntiriladi:

Sinfdan tashqari kreativ qobiliyatni o'rganish ishlari:

- o'quv-tajriba maydonchadagi amaliy tajriba-sinov ishlari;

- o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish texnologik ishlarni tashkil etish;

- shanbaliklarda doimo qatnashish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan tashkil etiladigan turli to'garaklarda ishtirok etish;

- maktabda "Navro'z", "Mustaqillik bayrami" va hokazo bayram tadbirlarini o'tkazish, urush va mehnat nogironlariga, faxriylariga samimiy yordami ko'rsatish;

- "Yosh o'lkashunoslar", maktab o'quvchilar uyushmalari faoliyatida, ularni vazifalarini o'rganish uchun ishtirok etish;

- o'quvchilar, ilmiy metodik jihatdan kreativ fikrlash qobiliyatini o'rganishi lozim bo'lgan imkoniyatlarni qidirib topishida ishtirok etish;

- o'quvchilar sinfdan tashqari dars mashg'ulotlari jarayonlarida, ekskursiyalar uyushtirish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadbirlar, ekskursiyalar va uyushmalar fikrlash qobiliyatini har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi ishtirok etish kerak.

Mazkur amaliyot, odatda, iyun yoki iyul oylarida o'tkaziladi hamda rejalashtiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi bunday ekskursiyani o'tkazish uchun uning vaqtini, kuchlarini ham ekskursiya mazmunini belgilab olishlari kerak, uni tashkil etish usullarini, shakl va metodlarini, vositalarini aniqlashlari zarur. Chunki ekskursiya quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

Kreativ qobiliyatni amalga oshirishdi, amaliyot dasturida quyidagilar belgilanishi zarur: ekskursiyaning aniq maqsadi va vazifalari; ekskursiya davrida ish mazmuni; ekskursiya davrida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning mazmuni va rejasi; ishlab chiqarish ob'ektlariga uyushtiriladigan sayohatlarning mazmuni va rejasi; amaliyot davrida yuritiladigan ish, o'quv, metodik, ma'muriy hujjatlarga qo'yiladigan talablar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan va sinfdan tashqari ishlarini tashkil etish va mashg'ulotlarni o'tkazishga tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida kreativlik yondashuv orqali pedagogik nazoratda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

Kreativ qobiliyat orqali, nazoratning maqsadini aniq belgilash; kreativ sifati orqali, tekshirish ob'ektlari (yo'nalishlari)ni; kreativ yondashuv tufayli nazoratni rejalashtirish; kreativlik sifati orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga tayyorgarligini tekshiramiz; kreativlik asosida dars jarayonida o'quvchining didaktik vositalar, jihozlardan foydalanishini tekshirish; kreativlik bilimdonligi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyachilik mas'uliyati va fikrlash qobiliyatini o'rganish; jamoaning kreativ fikrlash qobiliyatini aniqlash; kreativ faoliyati mazmunida turli munosabatlarning amalga oshirishini ifodalash; Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlash qobiliyatini namoyon etish orqali kreativlik qobiliyatni sinfdan va maktabdan tashqari paytlarda tashkil etishda, umumpedagogik qobiliyat tushunchalarni ilmiy-metodik jihatdan o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga tushuntirish o'ziga xos bo'lgan muhim jihatni kasb etadi. Ushbu dars mashg'ulotlarini o'tkazishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining tashkilotchilik, rahbarlik mahorati namoyon bo'ladi va u o'quvchilar qobiliyati dars jarayonida o'tkazilgan, va bajarilgan ishlarni kreativlik sifati bilan o'lchanadi.

Ma'lumki, kreativ qobiliyat takomillashtirish tizimi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasi to'g'risidagi g'oyalar, nazariyalar, ta'riflangan madaniy meroslarni sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanishda quyidagilarni kreativlik qobiliyatni ko'tarishda muhim deb hisoblaymiz:

- boshlang'ich sinf o'quvchisini kreativ yondashuv orqali kreativ qobiliyatni chuqur va atroflicha taxlil qilish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatni, va mahoratni o'rganishda, manbalardan o'rganiladigan va zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimidan foydalanilsa bo'ladigan g'oyalar va nazariyalarni tanlab olish zarurligi;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik yondashuv natijasida sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarda ma'naviy yoki moddiy qadriyatlardan qanday foydalanish yo'llari va metodlarini batafsil ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

- boshlang'ich sinf o'quvchisi kreativ fikrlash qobiliyatini ilmiy metodik sifatlarini aniqlashda milliy qadriyatlarni o'rganishga yo'naltirilgan zamonaviy

shakldagi sinfdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni nazorat qilish hamda baholashda ilmiy, metodik, mazmuniy tahlilni sharhlashni asosiy omillardan deb qarash kerak.

**Xulosa.** Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va boshqa ta'lim muassasalarida yangilangan ta'lim mazmunini amalga oshirishda, o'quvchilarning kreativ qobiliyati yuqori o'rinni egallaydi. Kreativlik yondashuv pedagogik va kreativ faoliyati, mahorati boshqa fan o'qituvchilarinikiga nisbatan farq qilib, u kichik yoshidagi o'quvchilar bilan bo'ladigan ishlab chiqarishga yaqin turganligi sababli, uning faoliyatida o'zgaruvchanlik, moslashuvchanlik, xarakatchanlikga nisbatan bilimdonlik xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Kreativ fikrlash qobiliyatini aniqlash bugungi kun o'quvchilari uchun juda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

### **Adabiyotlar**

1. "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizom 3-bob 12 bandi
2. Eshpulatova Jang'Il Eshonqulovna. (2023). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *International Journal of Pedagogics*, 3(03), 25–31.
3. Zhangil ESHPULATOVA. (2023). CRITERIA FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 1-5.
4. KOMPETENTLI YONDOSILISH ASOSIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH. (2025). *EduVision: Pedagogika va ta'lim sohasidagi innovatsiyalar jurnali*, 1 (2), 164-169.
5. Eshpo'Latova, J. E. (2024). MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH. *Inter education & global study*, (3 (1)), 139-146.
6. Eshpo'Latova J. E. MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH // *Inter education & global study*. – 2024. – №. 3 (1). – C. 139-146.
7. Eshpulatova Jang'Il Eshonqulovna, . (2023). BAŞLANGICH SIF O'QUVCHILARINING IJODLIK MAKORATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Xalqaro Pedagogika jurnali*, 3 (03), 25–31. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue03-05>
8. Eshanqulovna, E. L. J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish shakl va metodlari.

9. Eshanqulovna, E. L. J. I., & Shopoatovna, T. L. B. (2024, February). BOSHLANGICH SINFI O 'QUVCHILARDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 2, pp. 68).

## **BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING O‘QUV BILISH FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH**

**Muxtarova Lobar Abdimannabovna**

Termiz davlat pedagogika instituti, dotsent

**Shoymurodova Roziya Yusuf qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti, magistr

[roziyashoymurodova@gmail.com](mailto:roziyashoymurodova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini modellashtirishning zamonaviy yondashuvlari, pedagogik texnologiyalari va samarali metodlari tahlil qilinadi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni yechish ko‘nikmalarini shakllantirish, hamda bilimlarni ongli o‘zlashtirishiga xizmat qiluvchi modellashtirish vositalari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘quv-bilish faoliyati, modellashtirish, pedagogik texnologiyalar, kognitiv yondashuv, ta‘lim modeli, boshlang‘ich sinf.

### **KIRISH**

Bugungi kunda ta‘lim sohasida yangicha yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni bilishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida bu jarayonlar o‘ta muhim ahamiyatga ega. Zero, bu davrda o‘quvchilar o‘quv faoliyatining asosiy ko‘nikmalari, mustaqil fikrlash va bilimlarni anglash asoslarini egallaydilar.

Shu nuqtai nazardan olganda, o‘quv-bilish faoliyatini modellashtirish o‘quv jarayonini optimallashtirish, individual va guruh yondashuvlarni shakllantirish, hamda o‘quvchilarning ichki kognitiv faolligini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

### **ASOSIY QISM**

O‘quv-bilish faoliyati — bu o‘quvchining bilimlarni anglash, o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash jarayonidagi faoliyatidir. Bu faoliyat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- motivatsion-kommunikativ komponent;
- kognitiv (bilish) komponent;
- operatsion-ijodiy komponent;
- reflektiv (o‘z-o‘zini baholovchi) komponent.

Modellashtirish bu komponentlarning har birini chuqur tahlil qilish, ularni ko'rgazmali, tushunarli, bosqichma-bosqich tarzda shakllantirish imkonini beradi.

## **2. Modellashtirishning maqsadi va ahamiyati**

Modellashtirish — bu murakkab real jarayon yoki tizimni soddalashtirilgan, tushunarli model orqali aks ettirishdir. O'quv jarayonida modellashtirish quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. **O'quvchining tafakkurini faol holatga keltirish.** Modellashtirish orqali o'quvchilar passiv bilim oluvchidan faol fikrlovchi va izlanuvchi subyektga aylanadi. Jarayonda analitik fikrlash, mantiqiy tahlil, sintez va muqobillarni solishtirish kabi intellektual operatsiyalar faollashadi.

2. **O'rganilayotgan hodisalarni chuqur tushunish va tahlil qilish imkonini yaratish.** Real obyekt va hodisalarning soddalashtirilgan modellar orqali berilishi o'quvchilarga ularning mohiyatini anglash, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilishda yordam beradi. Bu esa bilishning chuqurlashishiga xizmat qiladi.

3. **Mavhum tushunchalarni amaliy holatga yaqinlashtirish.** Nazariy tushunchalar modellashtirish orqali o'quvchining kundalik hayoti, tajribasi bilan bog'lanadi. Bu yondashuv o'quvchilarda o'zlashtirilayotgan bilimlarning hayotiyliigi va foydaliligiga ishonch uyg'otadi.

4. **Muammoli vaziyatlar orqali tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.** Modellashtirishda o'quvchilarga hal etilishi lozim bo'lgan muammolar, tanlovli topshiriqlar, "nima bo'lardi, agar..." kabi savollar orqali fikrlash erkinligi va ijodkorligi uchun imkoniyat yaratiladi. Bu esa ularda mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantiradi.

O'quv-bilish faoliyatini modellashtirishning quyidagi usullari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali hisoblanadi:

**a) Vizual-grafik modellashtirish:** Bu usulda sxemalar, diagrammalar, rasmlar, tushunchalar xaritasi orqali bilimlar tizimlashtiriladi. Masalan, matn tarkibini ko'rsatish uchun "fikir xaritasi" tuzish.

**b) Rol o'ynash va ssenariy asosidagi modellar:** O'quvchilar real hayotdagi rollarni ijro etish orqali muammoni hal qilishni o'rganadilar. Bu usul ijtimoiy mavzular, axloqiy masalalarni o'rganishda juda foydalidir.

**c) Kompyuter modellari va interaktiv platformalar:** Interaktiv dasturlar, multimediali resurslar yordamida fizik, biologik jarayonlarni virtual ko'rinishda modellashtirish mumkin. Masalan, "Bilimdon.uz" platformasidan foydalanish.

**d) Muammoli ta'lim modellaridan foydalanish:** Muammoli savollar, situatsion masalalar o'quvchilarda izlanish, solishtirish, tahlil qilish kabi kognitiv jarayonlarni faollashtiradi.

**e) Konstruktiv modellashtirish:** O‘quvchilar loyihalar ustida ishlash, tajriba o‘tkazish, obyektlar qurish orqali bilimlarni o‘zlashtiradilar. Masalan, “suv aylanishi” modelini yasash.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning modellashtirishga ta’siri katta. Xususan, konstruktivistik ta’lim texnologiyasi – o‘quvchilarni bilim yaratuvchisi sifatida ko‘radi, ular bilimni mustaqil topib olishga o‘rganadilar. Klasster usuli (klasterlash) – tushunchalarni guruhlash orqali o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Blum taksonomiyasi asosida bilim darajalarini modellashtirish – eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil, baholash, yaratish bosqichlari orqali ta’lim jarayonini nazorat qilish imkonini beradi. “STEM yondashuvi” – fan, texnologiya, muhandislik va matematikani integrallashgan holda o‘qitish orqali amaliy modellashtirishga e’tibor qaratadi.

Modellashtirish texnologiyalarining ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodik mahoratiga bog‘liq. Shu bois quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

**1.Faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlarni berish.** O‘quvchilarni bilishni “eslab qolish” emas, balki “amalga oshirish” jarayoni sifatida qabul qilishlariga yo‘naltirish lozim. Buning uchun: amaliy mashqlar; konstruktorlik (modellashtirish) loyihalari; tajriba asosidagi topshiriqlar; real hayotga doir vaziyatli mashqlar tavsiya etiladi. Masalan: “Yil fasllarining almashinuvi modelini tuzing va uni og‘zaki tushuntiring.”

**2.Mustaqil fikrlashga undovchi savollarni ishlab chiqish.** Savollar o‘quvchini tayyor bilimni qayta aytishga emas, balki fikr yuritishga, asoslashga, izoh berishga majbur qilishi kerak. Masalan: “Agar suv bug‘lanmasligi mumkin bo‘lgan sharoitlar mavjud bo‘lsa, tabiatga qanday ta’sir qiladi?” “Nima uchun o‘simliklar quyoshga intiladi? Bu qanday foyda keltiradi?”

**3.O‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni tashkil etish.** Kognitiv modellashtirishda kichik guruhlar bilan ishlash, rolli o‘yinlar, fikr almashinuvi, birgalikda model yaratish o‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy-madaniy faoliyatni kuchaytiradi. O‘qituvchi: rollarni taqsimlaydi; muammoli vazifalar beradi; munozara va muhokama muhitini yaratadi.

**4.Individual yondashuv asosida modellashtirish texnologiyalarini tanlash.** Har bir o‘quvchining qobiliyati, bilim darajasi, qiziqish doirasini inobatga olib, unga mos metod va texnologiyalarni qo‘llash zarur.

- Kuchli o‘quvchilarga murakkabroq modellar yaratish topshirig‘i;

- Bilim olishda qiynalayotgan o‘quvchilarga esa ko‘rgazmali, soddalashtirilgan modellar bilan ishlash taklif etiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning bilim olish jarayonida muvaffaqiyat hissini oshiradi va ularni modellashtirish faoliyatiga jalb etadi.

## **XULOSA**

O'quv-bilish faoliyatini modellashtirish o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi, ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda orientatsiya qila olish, va bilish strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vositadir. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bu jarayonni tashkil etish o'quvchilarning shaxsiy o'sishi, kognitiv faolligining ortishi va ta'lim sifatining yuksalishiga sabab bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hasanboyeva S. "Ta'lim jarayonida modellashtirish asoslari", Toshkent, 2021.
2. Abdullayeva M. "Kognitiv faoliyat va uni rivojlantirish yo'llari", Andijon, 2020.
3. Jononova R. "Boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalar", Toshkent, 2019.
4. Vygotsky L.S. "Thinking and Speech", Cambridge, 1987.
5. Joyce B., Weil M. & Calhoun E. "Models of Teaching", Pearson, 2018.
6. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).
7. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.
8. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.
9. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81-84.
10. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Academia Science Repository, 4(04), 18–22.
11. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF A ARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. Academia Science Repository, 4(04), 176–180.
12. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. World Bulletin of Social Sciences, 21, 109-111.
13. Feruza RAKHMONOVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FORMING A CULTURE OF READING IN PRIMARY EDUCATION. European Scholar Journal, 4(3), 5-7.

14. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробация*, (2), 93-94.
15. Qulmo'minov O'rolboy, & Suyundikova Muslima. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI MEDIA TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI. ZAMONAVIY DUNYODA FANNING O'RNI VA AHAMIYATI BO'YICHA KONFERENSIYA, 2(1), 11–16.
16. Qulmuminov, O. R., & Suyundikova, M. (2025). STEAM FANLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI. *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, 2(1), 8-14.
17. Qulmuminov, O. R., & Suyundikova, M. (2025). ONA TILI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, 2(1), 15-20.
18. Safar o'g, Q. O. R. MODELLASHTIRISH ONA TILI O'QITISH TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUV.

## **TARBIYA – SHAXS KAMOLOTINING POYDEVORI.**

**Sattorova Maftuna Abdurashid qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Abdisamatova Dildora Sobirovna**

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi tarbiyaning shaxs kamolotidagi o'rnini, uning mazmun-mohiyati va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya, ma'naviyat, oila tarbiyasi, maktab tarbiyasi, ustoz, milliy qadriyatlar, globallashtirish, barkamol avlod.

**Аннотация:** В данной тезисной работе освещается роль воспитания в становлении личности, раскрываются его сущность и значение в современном обществе.

**Ключевые слова:** воспитание, становление личности, нравственное воспитание, духовность, семейное воспитание, школьное воспитание, учитель, национальные ценности, глобализация, всесторонне развитое поколение.

**Annotation:** This thesis explores the role of upbringing (tarbiya) in the development of an individual's personality, emphasizing its essence and importance in modern society.

**Keywords (in English):** upbringing, personal development, moral education, spirituality, family upbringing, school education, teacher, national values, globalization, well-rounded generation.

Har bir jamiyatning ertangi kuni, taraqqiyot yo'li, ma'naviy dunyosi va mustahkamligi – avvalo, u yerda yashayotgan insonlarning qanday tarbiya olganiga bog'liq. Shu ma'noda, tarbiya – shaxs kamolotining poydevori, jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchi sanaladi.

Inson o'zining har bir fazilatini – halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi xususiyatlarini tarbiya jarayonida egallaydi. Zero, mashhur mutafakkir Abu Nasr Forobiy aytganidek, “Odamlarga baxt keltiradigan narsa – bu

yaxshi tarbiyadir.” Yaxshi tarbiya ko‘rgan shaxs nafaqat o‘z hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadi, balki jamiyat hayotida ham ijobiy iz qoldiradi. Tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Farzandga beriladigan dastlabki saboqlar – ona allasi, otaning namunasi, ota-onaning o‘zaro munosabati orqali shakllanadi. Bolaning ruhiy dunyosi, axloqiy qadriyatlari, atrofdagi olamga munosabati aynan oilada shakllanadigan dastlabki tasavvurlar bilan bog‘liq. Shu boisdan, ota-onalar farzand tarbiyasiga juda katta e‘tibor berishlari lozim. Oila tarbiyasi maktabda mustahkamlanadi. Ustoz shunchaki bilim beruvchi emas, balki yosh avlodga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi, ularni hayotga tayyorlovchi ma‘naviy yetakchidir. Ustozlar bergan saboq, ularning odobi, o‘zini tutishi, nutqi – bularning barchasi o‘quvchining shaxsiyati shakllanishiga bevosita ta‘sir qiladi. Shuning uchun ham buyuk ajdodlarimiz ustozlarni doimo e‘zozlaganlar.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarga berilayotgan tarbiyaning o‘rni yanada muhim bo‘lib bormoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarning ongiga turli g‘oyalar singdirilmoqda. Ularning foydali yoki zararli ekanini farqlash – yetuk tarbiya orqali shakllanadigan ongli immunitetga bog‘liq. Shu sababli, yoshlarni yot g‘oyalar, ommaviy madaniyatning salbiy oqimlaridan himoya qilish uchun ularga chuqur ma‘naviy tarbiya berish zarur.

Xulosa qilib aytganda, Tarbiya – bu jamiyatga bo‘lgan eng katta sarmoya, kelajak uchun eng muhim boylikdir. Komil insonni tarbiyalash – bu oson emas, ammo ezgu va muqaddas burchdir. Har bir ota-ona, ustoz, ziyoli va mutasaddi yoshlar tarbiyasiga o‘z hissasini qo‘shsa, shundagina biz kelajagi porloq, tafakkuri yuksak, ma‘naviy jihatdan yetuk avlodni voyaga yetkazamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sattorova, M. A. *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishning ahamiyati*. International Journal of Artificial Intelligence, 4(09), 566–568. 2024
2. Sattorova, M. A. Tarbiya fani orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy g‘ururni shakllantirishning ahamiyati. ta‘lim, fan va innovatsiya. 6-son, 2024
3. Сатторова, М., & Ергашова, М. (2025). THEORETICAL FOUNDATIONS OF EDUCATING YOUTH AS WELL-ROUNDED INDIVIDUALS IN THE CONTEXT OF INDEPENDENCE. *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок*, 1(3), 201-203.
4. Jurakul Panjiev. Pedagogical and psychological foundations of integration of modern primary education lessons. Academia repository, 2(11), 37–45. 2023

5. Sattorova, M. A., & Ziyaqulova, M. S. (2025). BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA MUTAFAKKIRLAR MEROSI ORQALI MULOQOT MADANIYATI VA MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH. *Inter education & global study*, (4), 517-524.
6. Abdisamatova, D. (2024). MODELLASHTIRISH ASOSIDA ONA TILI DARSLARIDA DIOLOGLI MULOQOT MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. *Наука и инновация*, 2(38), 158-160.
7. Jurakul PANJIEV. (2023). PRIMARY CLASS CONTENT OF MATERIALS ON IMPROVING THE STUDENTS’ ECOLOGICAL CONCEPTS BASED ON THE INTEGRATION OF THE SCIENCES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 90-95.
8. Sattorova, M. A. Ta’lim jarayonida aralash ta’lim texnologiyalarini qo‘llash usullari. *Ta’lim, fan va innovatsiya*, 99–101. 2022
9. Abdisamatova, D. S. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ROLE OF MODULAR EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION PROCESS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(8), 175-180.
10. Sattorova, M. A. THE IMPORTANCE OF FORMING NATIONAL PRIDE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH THE SCIENCE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE*. -Volume 04, Issue 09, 2024 November, 2024-yil.

## **ФОРМИРОВАНИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

*Набиева Парвина Бахтияровна*  
*студентка 2-курса TerDPI*

**Аннотация.** В статье рассматривается проблема формирования креативного мышления у младших школьников как одного из приоритетных направлений современной педагогики. Представлены теоретические основы понятия креативности, его возрастные особенности в начальной школе, методы и приёмы развития творческого мышления. Обоснована необходимость интеграции креативных подходов в образовательный процесс, а также обозначена роль учителя в этом процессе.

**Ключевые слова:** креативное мышление, младшие школьники, начальная школа, творческое развитие, педагогические технологии.

### **Введение**

Развитие креативного мышления младших школьников наиболее ярко проявляется в поисково-исследовательской деятельности. Это их проектные работы. Проектная деятельность заставляет ребёнка увидеть проблему, поставить перед собой цели и задачи, выдвинуть гипотезу, продумать ход исследования, представить продукт своей поисковой деятельности и сделать определённые выводы. Например, на уроках литературного чтения я даю возможность детям раскрывать один из секретов волшебницы речи — рифму. Работа направлена на упражнения по рифмованию: «Дополни стихотворную строку словом!», «Буриме», «Сочини сказку, небылицу, считалку...», загадки на договаривание, придумай рифму к слову «Кто больше?», «Поймай рифму», сочинение чистоговорок, разгадай ребус и составь стишок.

На уроке русского языка составляем пиктограммы, которые являются одним из приёмов для развития гибкости и широты креативного мышления. Слово «пиктограмма» (от латинского *pictus* — нарисованный и греческого *grapho* — пишу) означает изображение слова рисунками, символами. Один мудрый человек сказал: «Когда я пишу, я узнаю о том, о чём я думаю». То же можно сказать обо всех графических формах работы с информацией: о схемах, таблицах, графиках, условных знаках и, конечно, рисунках — когда мы их используем, мы лучше понимаем себя и то, что изучаем.

Младшие школьники (6–10 лет) характеризуются высокой чувствительностью к обучению, эмоциональной впечатлительностью, развитым воображением и стремлением к самовыражению. Их мышление конкретно-образное, однако в этот период начинают формироваться элементы абстрактно-логического и креативного мышления.

Для детей этого возраста характерны:

- склонность к фантазии;
- эмоционально-положительное отношение к новому;
- высокая обучаемость в игровой и деятельностной форме;
- потребность в признании и поощрении.

Таким образом, педагогическая задача заключается в создании условий, при которых эти особенности становятся ресурсом для развития креативного потенциала.

В образовательном процессе начальной школы креативное мышление может успешно развиваться через следующие методы:

1. **Мозговой штурм** — групповое генерирование идей без оценки.
2. **Метод ассоциаций** — развитие образного и символического мышления.
3. **Игровые технологии** — сюжетно-ролевые игры, дидактические игры с элементами фантазии.
4. **Проектная деятельность** — выполнение творческих мини-проектов («Моя фантастическая планета», «Школа будущего»).
5. **Метод сказкотерапии и сочинительства** — создание собственных сказок, альтернативных финалов известных произведений.
6. **Интеграция предметов** — межпредметные уроки, связывающие знания по литературе, изобразительному искусству, окружающему миру.

Учитель начальных классов выполняет ведущую роль в формировании креативного мышления. Он не только организует обучающую среду, но и:

- стимулирует поисковую активность учащихся;
- поддерживает нестандартные идеи и высказывания;
- формирует культуру свободного самовыражения;
- создает атмосферу доверия и безопасности, в которой ребенок не боится ошибиться.

Важно, чтобы учитель сам обладал креативным подходом к обучению, гибко адаптировал методы в зависимости от контекста и индивидуальных особенностей учеников.

В ходе педагогических экспериментов, проведенных в ряде начальных школ, выявлено, что систематическое применение креативных заданий способствует:

- повышению познавательной активности;
- улучшению коммуникативных навыков;
- развитию самостоятельности и инициативности;
- формированию устойчивой учебной мотивации.

Примером служат творческие лаборатории, литературные мастерские, театральные постановки и работа над квест-проектами.

**Заключение.** Формирование креативного мышления у младших школьников — это неотъемлемый компонент современной образовательной практики. Оно требует комплексного подхода, включающего разнообразие методов, поддержку индивидуальности и создание стимулирующей развивающей среды. Только в условиях осознанной педагогической поддержки возможно раскрытие потенциала каждого ребёнка как самостоятельного, инициативного и творчески мыслящего субъекта.

#### Список литературы

1. Гилфорд Дж. Структура интеллекта. — М.: Педагогика, 1988.
2. Торранс Э. Креативность: Исследование и развитие. — СПб.: Речь, 2001.
3. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. — М.: Просвещение, 1991.
4. Занков Л.В. Обучение и развитие. — М.: Педагогика, 1990.
5. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH TA 'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. In НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).
6. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.
7. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.
8. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.
9. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 18–22.
10. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF A ARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. *Academia Science Repository*, 4(04), 176–180.

11. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 109-111.
12. Feruza RAKHMONOVA, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF FORMING A CULTURE OF READING IN PRIMARY EDUCATION. *European Scholar Journal*, 4(3), 5-7.
13. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Апробація*, (2), 93-94.
14. Qulmo'minov O'rolboy, & Suyundikova Muslima. (2025). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI MEDIA TA'LIM VOSITALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI. *ZAMONAVIY DUNYODA FANNING O'RNI VA AHAMIYATI BO'YICHA KONFERENSIYA*, 2(1), 11–16.
15. Qulmuminov, O. R., & Suyundikova, M. (2025). STEAM FANLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI. *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, 2(1), 8-14.
16. Qulmuminov, O. R., & Suyundikova, M. (2025). ONA TILI DARSLARI ORQALI O 'QUVCHILARNING KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI. *PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH*, 2(1), 15-20.
17. Safar o'g'li, Q. O. R. MODELLASHTIRISH ONA TILI O'QITISH TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUV.
18. **Kulmuminov, U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. *Open Access Repository*, 4(2), 434-437.**
19. **KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 27,54-56.**
20. **Kulmominov, O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. *Open Access Repository*, 9(10), 112-116.**
21. **Kulmominov, O., & Ibragimova, F. (2024). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 34, 66-69.**
22. **Kulmominov, O. (2024). Creative Thinking Of Students In Primary Education And Methods Of Its Display In The Educational Process. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(5), 283-289.**
23. **Hilola, N. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIGA SUV**

**TEJASH VA ULARNI ISROF QILMASLIKKA OID BILIMLARNI O'RGATISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(5), 170-173.**

24.Safar o'g'li, K. U. (2024). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 10-13.

25.Safar o'g'li, K. U. (2024). FEATURES OF THE PROCESS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 6-9.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING  
FIKLRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA  
INNAVATSION YONDASHUV**

**Meliyeva Dilfuza O'ralovna**

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi ”-- kafedrasining  
stajyor-o'qituvchisi

Denov, O'zbekiston

E-mail: [dmeliyeva@560gmail.com](mailto:dmeliyeva@560gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuv asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Milliy ma'naviy merosimiz hamda ilmiy-metodik asarlar tahlili, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'p yillik ijodiy tajribalarini o'rganish, tahlil qilish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy [va amaliy asoslarini aniqlandi](#).

**Kalit so'zlar:** aqliy faollik, metod, texnologiya, tafakkur, ijodiy izlanish, rivojlanish.

**УЧАЩИЕСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**В РАЗВИТИИ МЫШЛИТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ**

**ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД**

Мелиева Дильфуза Ураловна

Кафедра «Методики начального образования»

преподаватель-стажер

Денов, Узбекистан

Электронная почта: [dmeliyeva@560gmail.com](mailto:dmeliyeva@560gmail.com)

Методические рекомендации разработаны на основе инновационного подхода к развитию мыслительных способностей учащихся начальных классов. На основе анализа нашего национального духовного наследия и научно-методических работ, изучения и анализа многолетнего творческого опыта учителей начальных классов определены научные и практические основы обучения младших школьников самостоятельному мышлению.

**Ключевые слова:** мыслительная деятельность, метод, технология, мышление, творческое исследование, разработка.

#### **ANNOTATION**

Methodical recommendations were developed based on an innovative approach to the development of thinking ability in primary school students. Based on the analysis of our national spiritual heritage and scientific and methodological works, the study and analysis of many years of creative experience of primary school teachers, the scientific and practical basis of teaching primary school students to think independently was determined.

**Key words:** mental activity, problem-based education, method, technology, thinking, creative research, development.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil fikrlash mohiyati hamda bosqichlarini tashxis qilish va ilmiy asoslash;

➤ boshlang‘ich ta‘lim jarayonida «fikrlash qobiliyatini rivojlantirish» tushunchasi mazmunini yoritish va uning o‘ziga xos [xususiyatlarini ochib berish](#);

➤ boshlang‘ich sinf o‘quvchilar fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning mazmuni va uni egallashning shart-sharoitlarini aniqlash;

➤ boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning samarali tizimini ishlab chiqish [va tajriba davomida isbotlash](#);

➤ boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda quyidagilarga amal qilish zarur:

➤ darsda o‘quvchining mustaqil fikrlashi uchun zaruriy sharoitlar yaratilsa;

➤ har bir darsda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadigan didaktik o‘yinlar, mashqlar va topshiriqlardan [izchil foydalanilsa](#);

➤ ta‘lim jarayonida mustaqil ishlarni izchil va muntazam o‘tkazib borilsa;

➤ bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlar yaratilsa, mazkur muammolarni o‘quvchilarning o‘zlari hal [etishlari uchun imkon berilsa](#);

➤ o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatida «subyekt-subyekt» munosabati o‘rnatilsa, muvaffaqiyatga erishish mumkin.

O‘quvchilar faqat darslik va o‘qituvchi tomonidan dars jarayonida beriladigan ma‘lumotlarga tayanib qoldilar. O‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan talablar ularda mustaqil fikr yuritish ehtiyojini tug‘dirmaydi [1].

Ta‘lim [samaradorligini oshirish](#), o‘quvchilar mustaqil faoliyatini tashkil etish muammosi bir qancha tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. O‘quvchilar tafakkurini o‘stirish, o‘quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish va faollashtirish muammosi A.G‘ulomov, M.Haqberdiyev, T.Ziyodova, S.Yaminova, M.Saidov, B.Adizov, Ya.Raxmonov tadqiqotlarida atroflicha yoritib berilgan. Q.Yo‘ldoshev tadqiqotida

adabiyot darslarini pedagogik hamkorlik asosida tashkil etish yo'llari ishlab chiqilgan. M.Maxmutov, V.Okon, R.Ibragimovlar esa ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va shu asosda o'quvchilar o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq etishgan. Mustaqil ishlar va uning o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatiga va tafakkuriga ta'siri jarayoni O.Roziqov, R.Mallayev, A.G'ulomov, T.Niyozmetova, N.Sattorova, S.Matchonov, L.Mirdjalalova, Y.Raxmonovlar tomonidan tadqiq qilingan. Ta'lim jarayonini o'yinlar asosida tashkil etish muammosini R.Tolipova, J.Tolipova, A.Bobomurodova, F.Qodirovalar tadqiqotlarida ko'rish mumkin.

A.Choriyev mustaqil fikrlash faoliyatini shaxs mustaqilligining asosiy komponenti sifatida falsafiy jihatdan tahlil qilgan. Tafakkurning psixologik asoslarini E.G'oziyev, V.Karimova, Z.Nishonovalar o'z tadqiqotlarida ochib berganlar. Tadqiqotlar tahlilidan ko'rinib [turibdiki](#), boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish vositalari alohida-alohida tarzda tadqiq etilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish malakalarini, mustaqil ravishda muammolarni hal qila bilish ko'nikmasini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Modomiki, shunday ekan, ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki o'quvchilar bilim olish bilan birgalikda, ta'lim jarayonining obyekti bo'lib qolmasdan, ta'lim jarayonida o'qituvchining teng hamkoriga aylansin va mustaqil fikrlay olish malakasini ham egallay borsin [2].

Hayot jumboqlarini, tabiat tug'dirgan muammolarni o'rganish, ularga tegishli javob topish istagi, yana ham to'g'rirog'i, baxt-saodatga erishish muammosi, insonning o'zini va olamni bilishga bo'lgan qiziqishi asrlar mobaynida fikrlashga, o'z fikrlarini mantiqiy asoslashga da'vat qilib keladi. Sharq allomalari asarlarida bu muammoga alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas. Zero, mustaqil, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta'sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish

ko‘radi. Sharq va G‘arb olimlari bu muammoni o‘zlari yashab o‘tgan davr ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda yechishga harakat qilganlar. Inson tafakkurining beqiyos kengliklari xususida «Qur‘oni Karim» va «Avesto»da diniy asosda talqin qilingan bo‘lsa, o‘rta asrlarda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi qomusiy olimlar ilmiy-badiiy usulda talqin qilganlar. So‘nggi davrlarga mansub olimlarning asarlarida esa ilmiylik uslubi ustunlik qiladi [3].

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino nafaqat tibbiyot olamidagi kashfiyotlari bilan, balki ta‘lim va tarbiya sohasidagi asarlari bilan ham milliy pedagogika tarixida muhim o‘rin tutadi. U «Tadbiri manozil» («Bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash») asarida o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini yaxshilash, bilim berish jarayonining samaradorligini oshirishda o‘quvchilarni birga o‘qitish zarurligiga diqqat qaratadi. Bunda o‘quvchi zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Shu asosda o‘quvchilar o‘qigan kitoblari, fikr-mulohazalari, kattalardan eshitgan fikrlari bilan o‘rtoqlashadilar va ana shu jarayonda ularning fikrlash darajasi shakllana boradi [4].

Ibn Sino suhbatdoshiga hurmat bilan yondashish haqida to‘xtalib, shunday deydi: «Sening fikring (bolaning) [yuragiga yetib borib](#), unga o‘ylab, fikr yuritib ko‘rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do‘sting sening so‘zlaringga va nasihatlariga e‘tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko‘chir».

Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatiga, xayol-xotirasi va iroda sifatlariga yuqori baho beradi. Tafakkurning kuchi shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga chog‘ishtirib, abstraksiyalash bilan haqiqatni yolg‘ondan ajratish mumkin, xotira yordamida esa idrok qilingan narsa va hodisalar kishi ongida mustahkam saqlanib qoladi va idrok qilingan bir obyektini ikkinchisidan ajratishga yordam beradi. Xayol kishi ongida obyektiv voqelikning aks ettirilishidir, degan fikrlarni bayon qiladi.

Kaykovus ilmiy asarlar mutolaasidan olingan bilimlar nechog'lik haq bo'lmasin, hayotda o'z fikriga tayanib mustaqil ish ko'rish lozim bo'lgan vaziyatlar ham bo'lishi mumkinligini o'g'liga nasihat tarzidagi «Qobusnoma» asarida yozadi: «Ey farzand, bilgilki, barcha hukmni kitob bo'yicha qilmasdan, o'z fikrlari bilan ham hukm qilurlar va bunday tadbirlar bilan ham ishni bilib olurlar» [5].

Buyuk qomusiy olim, faylasuf va pedagog Abu Rayhon Beruniy ham bilimlarning hosil bo'lishida aql, fikr, sezgilarining o'rni haqida so'z yuritar ekan, shunday deb yozadi: «Faqat sezgi orqali, sezgi organlari yordamida o'zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishmog'i mumkin... Istaklarga mehnat tufayli erishiladi». Olimning fikricha, faqat eshutilgan, ko'rilgan yoki umuman sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlar shundayligicha idrok qilinmasdan, balki aql chig'irig'idan o'tkazilsa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo'ladi.

Beruniyning ilmiy merosida tabiatni o'rganish va bilishning ilmiy metodiga ham katta o'rin ajratilgan. Beruniy ilmiy metodining xarakterli xususiyatlari obyektivlik va oqilona yondashuv, kuzatish, tajribalar, og'zaki va yozma yodgorliklarni o'rganish, dalillarga tanqidiy yondashuv, [ularni aqliy xulosalar](#) shaklida mantiqiy umumlashtirish va haqiqatni aniqlash maqsadida qiyoslashdan iboratdir. Buyuk olim ta'limning izchil, ko'rgazmali, maqsadga qaratilgan bo'lishi va muayyan tizim bo'yicha olib borilishi zarurligini, ko'rgazmalilik ta'limni ancha qulay, aniq va qiziqarli qilishi va tafakkurni rivojlantirishini alohida ta'kidlaydi.

G'azal mulkingning sultoni, ma'rifatparvar davlat arbobi Alisher Navoiy asarlarida ham insonning o'z fikri, dunyoqarashiga ega bo'lishi, bilim olishi va olgan bilimlarini hayotda qo'llay bilishda inson tafakkurining o'rni katta ekanligiga alohida ahamiyat beriladi. Shoir «Mahbub-ul-qulub» asarida bilim olib mustaqil mushohada yurita olmaydigan insonni «ustiga kitob ortilgan eshak»ka qiyoslaydi va «nodon» deb ataydi.

Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida badan tarbiyasi bilan bir qatorda fikr tarbiyasiga ham alohida ahamiyat beradi. Uning ta'kidlashicha, fikr tarbiyasi «muallimning yordamiga so'ng darajada muhtojdir» va inson hayotida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'quvchilarning mustaqil faoliyati ijodning turli darajasi bilan kechishi mumkin. Ammo o'quvchilarning har qanaqa mustaqil faoliyati, albatta, o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi: sharoit yaratiladi, ko'rsatmalar beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslariga oid izlanishlar davomida o'quvchilarning fikrlash faoliyatida individual va tipik xususiyatlari mujassamlashadi, degan xulosaga keldik.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abdullayev H., Mirzayeva M. Ta'lim samaradorligining muhim shartlari // Xalq ta'limi. 1993-y. 8-9. – B. 3.
2. Илина Т.А. Понятие педагогической технологии в современной буржуазной педагогике Сов. [Педагогика](#), 1991 г. № 9. - С. 123-124 с.
3. Yo'ldoshev J.G'. Ta'limda yangilanish davr talabi // Til va adabiyot ta'limi, 1996-y, №3. – B. 8-bet.
4. Lerner I.Ya. Vnimanie o texnologii obucheniya // “Sov. Pedagogika”, 1990 g, № 3. S. 139.
5. Mallaboyev A. O'quvchilar bilan individual munosabatda bo'lishning psixologik asoslari // Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. – Andijon, 1996-y. – B. 27-b.

## **ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI.**

**Termiz davlat pedagogika institute Boshlang'ichta'lim  
kafedrasi o'qituvchisi Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna  
Choriyeva Gulmira Sharif qizi Termiz davlat  
pedagogika institute Boshlang'ich  
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Ona tili darslarida til o'qitishdagi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslanib, didaktik vositalar va interfaol ta'lim metodlaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarda nutqiy kompetensiya tarkibiy elementlari: tinglash, so'zlash, o'qish va yozish kabi nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali natijalar berishi yoritilgan. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning nutqini o'stirish, ularga to'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rgatib borish, so'z boyligini kengaytirish har bir ona tili o'qituvchisining bosh vazifasidir

**Kalit so'zlar:** integrativ, kompetensiyaviy, modul, kommunikativ yondashuvlar, o'qish, so'zlash, tinglash va yozish ko'nikmalari, nutqiy kompetensiya, interfaol metodlar, didaktik vositalar.

**Аннотация:** На основе современных педагогических подходов к обучению языку на уроках родного языка целенаправленное использование дидактических средств и интерактивных методов обучения позволяет дать эффективные результаты в развитии структурных элементов речевой компетентности учащихся: аудирования, говорения, чтения и письма. Основная задача каждого учителя родного языка – развивать речь учащихся на занятиях по родному языку, обучать их нормам правильного произношения, расширять их словарный запас.

**Ключевые слова:** интегративный, компетентностный, модульный, коммуникативный подходы; навыки чтения, говорения, аудирования и письма; речевая компетентность, интерактивные методы, дидактические средства.

**Annotation:** Targeted use of didactic tools and interactive teaching methods based on modern pedagogical approaches to language teaching in native language classes allows to achieve effective results in the development of structural elements of students' speech competence: listening, speaking, reading and writing. The main task of every native language teacher is to develop students' speech, to teach the rules of correct pronunciation, and to expand their vocabulary in native language classes.

**Key words:** integrative, competence, modular, communicative approaches; reading, speaking, listening and writing skills; speech competence, interactive methods, didactic tools.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari tinimsiz rivojlanayotgan paytda yangi innovatsion texnologiyalarga asoslanib ta'limning dunyo standartlariga mos darsliklar yaratish asosiy talablardan biridir. Har sohada bo'lgani kabi hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishining ilmiy tahlillari va grammatik tizim, o'qituvchi - o'quvchi munosabatlari ham tubdan yangilanib bormoqda. Ona tili fanining yangilangan yo'nalishidan ko'zlangan maqsad o'quvchining ona tilida fikrini aniq ravon va tiniq nutqini shakllantirib bera olish. Nutq avvalo, aniq, mukammal va fikrlarni to'g'ri ifodalay olishi zarur. Ona tili fani o'quvchilarga so'zlarni to'g'ri tanlash, ularni o'rinli ishlata olish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish kabi tushunchalarni o'rgatadi. Nutqning asosiy vositasi tildir. Til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa-aralashuv vazifasini bajaradi. Jamiyatda fikr almashish zaruriyatga asoslangan jarayon. Ona tili darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini chiroyli ifodalashga xizmat qilishdan iborat. Bu borada bir necha usullar mavjud. Ular orasida keng tarqalgan usullardan biri ijodiy matn yaratishga o'rgatish. Bu usul o'z fikrini matn ko'rinishida ifodalash ona tili darslariga qo'yilgan talablarning hammasini o'zida to'liq shakllantira olgan eng samarali usul. U o'quvchining tafakkurini rivojlantiradi, so'z boyligini orttiradi. Ijodiy matn bir necha ko'rinishlarga ega bo'lib, tasviriy matn turida voqealar qatnashuvi kuzatilmaydi.

Jamiyatimizda ulkan o'zgarishlar ro'y berdi va ro'y bermoqda. Shunday o'zgarishlar sirasida o'zbek tilshunosligi va uning tadriji bilan bog'liq yangilanishlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'zbek tilshunosligida tilni umumiylik,

mohiyat, imkoniyat, sabab xarakteridagi tizim; nutqni esa alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat sifatida o'rganuvchi substantsial tilshunoslik yo'nalishi shakllandi, rivojlandi, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Biroq bu yangilanishlarning barchasi ta'lim tizimi bosqichlarida saralanib, birdek qabul qilingani yo'q. Jumladan, o'zbek substantsial tilshunosligining yuzaga kelishi uchun poydevor vazifasini o'tagan an'anaviy tilshunoslik yutuqlari oliy ta'lim dastur-u darsliklarida ham, o'rta maxsus ta'lim tizimida ham, maktab programmasida ham yangi yo'nalish yutuqlari bilan qorishib ketdi. Bir-birini rad etuvchi nazariy bilimlar maktab darsliklarida ko'plab uchrashi ham achinarli holdir.

Atrofimizga nazar tashlasak, ilg'or davlatlarning ko'pida ona tilidan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. "Ta'lim mazmuni sirasida o'quvchilarga taqdim etilayotgan

bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undashi lozim”ligi belgilandi. O’quvchilarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlash ko’nikmasini shakllantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og’zaki va yozma shaklda to’g’ri, ravon ifodalashga o’rgatish uchun ona tili ta’limining mazmunini tubdan yangilash, o’quv materiallarini zamon ehtiyojiga moslash talab qilindi. Buni amalga oshirishda, tabiiyki, ta’lim vositalari muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunga qadar bir qator maktab “Ona tili” darsliklari yaratildi, lekin ulardagi o’quv materiallarning hammasi ham talabga javob beradimi, degan savol atrofida mulohaza yuritishga to’g’ri keladi. Hamid Ne’matov va Asqar G’ulomov kabi olimlarimiz ona tili ta’limining bugungi holatini, uni yaxshilashda nimalar qilish kerakligini, o’quvchilarga nimalarni o’rgatish lozimligini jiddiy tahlil orqali o’rinli asoslagan edilar. Raqobatbardosh, malakali kadrlarni tarbiyalash ona tili ta’limi oldida turgan dolzarb vazifa bo’lib, uni amalga oshirish umumiy o’rta ta’limning asosiy vositasi bo’lgan darsliklar, ulardan o’rin olgan o’quv materiallarining saviyasiga ko’proq bog’liqdir. Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, bugungi kun ona tili ta’limi maqsadi darslarda asosiy ta’lim vositasi faqat darslik bo’lishini taqozo etmaydi. O’qituvchi ham, o’quvchilar ham belgilangan mavzular mohiyati bilan bog’liq tarzda, odatda, “Axborot banki” materiallari (lug’atlar, ma’lumotnomalar, qomuslar, qaydlar va h.lar)ga tez-tez murojjaat etishlari lozim. Afsuski, ona tili ta’limi mazmuni yangilanganiga qariyb yigirma yildan oshgan bo’lsa-da, maktab o’qituvchilarimizning aksariyati hamon faqatgina darslik materiallaridan foydalanishmoqda.

**Tahlil va natijalar.** O’quvchilarning nutqiy kompetensiyalari ular mavjud bo’ladigan barcha lisoniy hamjamiyatlarda, ya’ni: o’z oilasida, tengdoshlari davrasida, ijtimoiy muhitlarda amalga oshiriladigan nutqiy faoliyatlari davomida sayqallanib boradi, chunki o’quvchi o’z navbati bilan ham so’zlovchi, ham tinglovchi pozitsiyasini egallaydi, jarayonning faol ishtirokchisi sifatida savol-javoblarda qatnashadi, munosabat bildiradi, o’z fikrlarini himoya qilishda so’z boyligidan to’la foydalanishga ehtiyoj sezadi, shu holat o’quvchi leksikonida hikmatli so’zlar, maqollar, hikoyalardan eshitib, o’qib o’zlashtirgan so’zlardan amalda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi tinglash, so’zlash, o’qish va yozish tarkibiy elementlari o’quvchilarda bir-birini taqoza etuvchi hamda to’ldirib boruvchi, o’zaro chambarchas bog’langan nutqiy jarayonlar bo’lib, har biri nutqiy faoliyatning rivoji uchun muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Umumiy o’rta ta’limda o’quvchilarning nutqiy kompetensiyalari tizimli va uzluksiz ravishda o’qitishning dastlabki bosqichlaridan boshlab rejaga muvofiq til sathlariga oid grammatik qoidalar va ularni mustahkamlashga doir mashq va topshiriqlar asosida rivojlantirilib boriladi. Ona tili darslarida o’quvchilarning nutqiy kompetensiyalari

ham rivojlantirilib boriladi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida til o'qitish tizimida ham zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy didaktik vositalardan foydalangan holda o'quvchilarda tinglash, so'zlash, o'qish va yozish nutqiy ko'nikmalarni kompleks rivojlantirish bugungi davr talabidir. Shu nuqtayi nazardan amaliyotda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarni o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish, so'zlardan nutqida to'g'ri va o'rinli foydalanishga o'rgatish maqsad qilib olingan. Har bir o'qituvchi 1-4-sinf ona tili fanidan yaratilgan multimedia ilovali metodik qo'llanmalardan ta'lim sifatini oshirishda o'rinli va maqsadli foydalanishi zarur. Ayniqsa, ona tili darslarida matn ustida ishlashga va ularning xususiyatlari haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitishga alohida e'tibor qaratish lozim. O'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdan maqsad ulardagi so'zlash, fikrlash, muloqot qilish, munosabat bildirish, mushohada qilish, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, mustaqil ravishda matn tuzish va yozish malakalarini tizimli shakllantirish va o'stirish, leksik va sintaktik birliklarni qo'llashda mantiqiy yondashuvga asoslanishni o'rgatishdan iborat. Sermazmun og'zaki nutq, ibratomuz maqol va hikoyalar o'qish, har bir narsadan hikmat qidirish g'oyasi yo'g'rilgan badiiy adabiyot namunalarini tinglash ta'sirida mahsuldor yozma nutq yaratiladi. Shuning uchun o'qish, tinglash va yozish o'quvchilarni bilimlarni mustahkam egallashga va komillikka yetaklovchi unsurlardir. Til ta'limida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish o'quvchilarda nutqini o'stirishga yo'naltirilgan hamkorlikda olib boriluvchi amaliy faol mashg'ulotdir.

**Xulosa:** Ona tili darslarida o'quvchilarga nutqiy kompetensiya tarkibiy elementlarining funksional mazmunini singdirish va amalda qo'llashga o'rgatish ularning jamiyatda kommunikativ aloqaga kirishlarida, og'zaki va yozma muloqot jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ona tiliga oid kompetensiyalarni shakllantirish davr talabidir. O'quvchilar ona tili faniga oid savodxonlikni oshirish bilan birgalikda ularda fanga oid bilimlarni rivojlantirish, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni yuksak salohiyatga ega bo'lishiga ko'maklashadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 168 b.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T., O'qituvchi, 2001. – 221 b.

3. Mirzaqulov T. Grammatika o‘qitishning lingvistik asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1994. – 56 b.
4. Shabbazova D.R., Ona tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma –T.: METODIST NASHRYOTI, 2023

## **ONA TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY USUL VA VOSITALARI**

Termiz davlat pedagogika institute  
“Boshlang’ich ta’lim ” kafedrası o’qituvchisi  
**Erdanova Zamira Olimovna**  
Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi  
**O’ralova Marjona**

**Annotatsiyasi.** ona tili darslarida matn ustida ishlash texnologiyasining zamonaviy usul va vositalari yoritilgan. Matn ustida ishlash o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, tafakkurini kengaytirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab beriladi. Muallif zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol metodlar, AKT vositalari, klaster, insert, konseptual jadval, akvarium, aqliy hujum kabi metodlarning samaradorligi haqida fikr yuritadi. Shuningdek, maqolada matn ustida ishlashni bosqichma-bosqich tashkil etish, matn mazmunini chuqur anglash, asosiy g‘oyani ajratish, savol-javoblar asosida matnga kirib borish orqali o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari ko‘rsatib o‘tilgan. Xulosa o‘rnida, zamonaviy usul va vositalar bilan boyitilgan matn ustida ishlash texnologiyasi o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy fikrlash va estetik didini rivojlantirishda muhim omil bo‘lishi ta’kidlangan.

**Kalit so‘z:** ona tili, matn ustida ishlash, zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar, AKT vositalari, tafakkur, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash, klaster, insert, konseptual jadval, aqliy hujum, akvarium, tanqidiy fikrlash, ta’lim samaradorligi, kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, matn tahlili, estetik did, o‘quvchi faolligi.

